



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQA TA`LIMI
YO`NALISHI

IV- bosqich 401-gurux talabasi Oripova Fotimaning

**“Chang cholg’u asbobida o’qitishning mazmuni va
metodikasi” mavzusidagi**

5111100-musiqa ta’limi yo’nalishi bo’yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar _____M.Nasriddinov

Andijon – 2017

Mavzu: Chang cholg'u asbobida o'qitishning mazmuni va metodikasi

Kirish

I-Bob. O'zbek xalq cholg'u asboblarining tarixi

1.1. Xalq cholg'u asboblarining shakllanishi

1.2 Xalq cholg'u asboblarining takomillashuv jarayoni

II Bob Chang cholg'usida ijrochilik texnologiyasi

2.1.Changda ijrochilik uslublari

2.2 Chang cholg'u asbobida ijrochilik texnologiyasi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi". Respublikamizda o'tkazilayotgan islohotlarni takomillashtirish iqtisodiyotimizni rivojlangan davlatlar qatorida bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Oldimizda turgan maqsadlarimizga erishish yoshlarimizning intellektual salohiyati va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Ya'ni, barkamol avlodni tarbiyalash oldimizda turgan eng muhim vazifalaridan biridir.

Mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch" asarida musiqa san'ati haqida ham o'z fikrlarini bildirganlar. Musiqaning inson ruhiy kamolotiga ta'siri haqida gapirib albatta, bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmasligini ta'kidlaganlar. Mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Prezidenti "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan chora tadbirlari"¹ to'g'risidagi farmoyishlari ham musiqa san'atini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganining natijasidir.

Yurtboshimiz e'tirof etganlaridek barkamol avlodning bilim va salohiyatini oshirish ularni qobiliyatini rivojlantirish millatimizning kelajagini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladi. Shunday qilib barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi chinakam ma'rifatli kishilarni aniq maqsad yo'lida mustaqil fikrlay oladigan o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan shaxslarni shakllantirish davlatimiz siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

¹"Халқ сўзи" рўзномаси Т. 8.01. 2008 -йил 4- бет

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'limni isloh qilish, musiqa darslarini milliy tarbiya asosida olib borish borasida bir qator ishlar rejalashtirildi. Davlat Ta'lim standartlari asosida madaniy merosimizning milliy va umumbashariy qadriyatlariga tayanib, musiqiy ta'limga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, Davlat Ta'lim standartida belgilangan milliy madaniy meroslarimizni, ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyatlarimizni, milliy xalq qo'shiqlari va kuylarini yosh avlodga o'rgatish va ularning ma'naviy ongini shakllantirish muhim vazifa etib belgilandi.

Komil insonni shakllantirishda musiqa o'qituvchisi nimalarga e'tibor berishi lozim? Avvalo o'quvchi yoshlarning musiqaviy iste'dodi, fanga bo'lgan qiziqishi, cholg'u va ijrochilik, dirijyorlik, qo'shiq kuylash va nazariy bilimlarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bugungi kunda bu borada qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Ma'lumki, yaxshi sozanda va qo'shiq kuylash uchun musiqa savodxonligiga ega bo'lish, umumta'lim maktabi hamda musiqa maktabi va kollej ma'lumotiga ega bo'lib, oliy musiqa dargohida biror bir cholg'u asbobini mukammal darajada uzlashtirish lozim.

Yoshlardagi musiqaga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalab biror bir cholg'u asbobida ijro mahoratini shakllantirishimiz kerak. Chang cholg'usi sehrli ohangi bilan yoshlarimizning qalbini o'ziga rom etadi. Tabiiyki, yoshlarimizga milliy cholg'u asboblariimizni atroflicha o'rgatishimiz hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun ham biz "Chang cholg'u asbobida o'qitishning mazmuni va metodikasi" mavzusini dolzarb mavzu sifatida o'rganishga qaror qildik. Ushbu mavzu bitiruv malakaviy ish sifatida tadqiq qilinmagan.

Malakaviy bitiruv ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ish chang sozida ijrochilik mohorati, changda toza tovush hosil qilishning ahamiyati xususida so'z boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish muhimki, changda ijrochilik boshqa cholg'u asboblariiga qaraganda ancha murakkabroq bo'lib ijrochidan ko'proq mehnat, tovushlar tozaligiga diqqat bilan e'tiborni talab etadi.

Maqsadimiz chang cholg'usida mohir ijrochi sozanda hamda o'qituvchilarni yetkazib berishdan iboratdir. O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda ko'p ovoqli orkestr, kamer ansambllari, yakkanavoz ijrochilarining o'rni beqiyos. O'z o'rniga ega bo'lgan chang sozi ijrochilari va sozandalarni yetkazib berish oldimizga qo'yilgan asosiy va muhim vazifalarimizdan biri bo'lib hisoblanadi.

Chang o'qitish uslubiyoti, chang cholg'u asbobi takomillashuvi, chang ta'limi ijrochilik texnologiyasi va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida darslarni loyihalashtirish hamda kerakli bilimlar bilan qurollantirish asosiy talablardandir.

O'zbekistonda cholg'u ijrochilik san'atini rivojlantirishda milliy cholg'u asboblarning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Shu sababli har bir cholg'u asbobda ijro mahoratini o'stirish har bir cholg'u asbobida toza intonatsiyada to'g'ri holatni qo'yib, mohirona ijro uslublarini egallagan holda o'zbek xalq kuylarini, qardosh rus va chet el kompazitorlarining asarlarini keng xalq ommasiga ijro uslublari orqali yetkazish va kelajakda yoshlarni ham ijrochi sozanda sifatida tarbiyalash vazifasi turadi.

Darhaqiqat, bitiruv ishning vazifasi chang cholg'u asbobida o'qitish uslubiyotiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, mustaqil darslarni ilg'or pedagogik tajribalar asosida tashkil etish va nazariy hamda amaliy bilimlarni yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati

- 1.O'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi ijrochi sozanda etib tarbiyalash.
- 2.Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini chang soziga bo'lgan qiziqishini tarbiyalash.
- 3.Chang cholg'usida ijroni o'zlashtirish uchun barmoqlar holatini to'g'ri qo'yish va toza tovishlar hosil qilish texnologiyasini ishlab chiqish.
- 4.Har bir ijrochi mohirona ijrochilik malakasiga ega bo'lishi uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning metodologik asoslari.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Shuningdek «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat

umummilliy dasturi», O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining “Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan chora tadbirlari”² to‘g‘risidagi farmoyishi tashkil etadi.

Ilmiy - tadqiqot metodlari.

1. Ta’limga oid davlat hujjatlari, chang ta’limiga oid o‘quv dasturlari , davlat ta’lim standartlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanma va boshqa adabiyotlarni tahlil etish.
2. Kuzatish.
3. Suhbat.
4. Tajribani tashkil etish va umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki o‘quvchilarining chang soziga bo‘lgan qiziqishi, ijrochilik mahoratini oshirishga doir ilmiy mulohazalar va uslubiy ko‘rsatmalar bitiruv malakaviy ish sifatida birinchi marta tadqiq qilinmoqda.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki ushbu bitiruv malakavuy ishda berilgan tavsiya va uslubiy ko‘rsatmalardan umumta’lim maktabi hamda musiqa va san’at maktabi o‘quvchilarini chang soziga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va ijro mahoratini oshirish jaroyonida qo‘llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi hajmi: Kirish, ikki bob, to‘rtta paragraf, xulosa va foydalangan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

²“Халқ сўзи” рўзномаси Т. 8.01. 2008 -йил 4- бет

I-BOB.O'ZBEK XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING TARIXI.

1.1. XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING SHAKLLANISHI.

Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti masuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Undan keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlagan, shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi.

Qadimgi sharq madaniyati bag'rida, o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'bizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida

qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi.

Topilgan madaniy yodgorliklarda turli xil musiqa asboblari: tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, nay, surnay, karnay, doirasimon cholg'ular chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda «Navro'z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

IX asr oxirida Somoniylar mahalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu yerda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o'zgarishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushida musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O'sha paytlardayoq yakkanavoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal cholg'u musiqa turkumlari mavjud edi.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblari chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarning yangi namunalari kashf etishdi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni

va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ush-shifo") qomusidagi "Musiqa haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqidagi risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinining eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir.

Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiqa haqidagi to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabir fil-musiqiy") uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni – musiqada lادلarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Amir Temur saroyida-Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqa ilmida ohanglar to'plami" ("Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Xusaynning (XV asr) "Musiqiy kanonlar" risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg'usi-dutor haqida ma'lumot berilgan.

Qutbiddin ash-SHeroziy (1236-1310) Eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozini musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida

ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari «Kitob al – musiqa al -kabir» («Musiqa haqida katta kitob») ulkan ahamiyatga ega. Oʻrta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qoʻshiq sanʼati) va cholgʻular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholgʻularining jamiyat hayotidagi oʻrnini oʻrganishga ahamiyat beradi va u: «... Jangu - jadallarda, raqslarda, toʻy - tomoshalarda, koʻngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qoʻshiqlarini kuylashda chalinadigan oʻziga xos cholgʻular bor» deb yozgan edi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholgʻularning nafaqat saroy aʼyonlari, balki shahar va qishloq aholisi, hunurmandlar orasida shuningdek, musiqa madaniyatida yetakchi oʻrin egallaganini isbotlaydi.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan-oxir oʻsha davr musiqa cholgʻulariga bagʻishlangan. Unda lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun va boshqa musiqa cholgʻulari izchil va batafsil taʼriflanadi. Forobiy torli, mizrobli lyutnyani oʻsha davrda eng keng tarqalgan cholgʻu hisoblagan. Lyutnya oʻziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lad)lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholgʻu koʻpgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelyapdi. Zamonaviy ud namunalari Toshkent Davlat konservatoriyasining sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud.

«Musiqa haqidagi katta kitob»da Forobiy yana bir cholgʻu asbobi- tanburni ham taʼriflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi cholgʻulardan biridir.

Tanburda torlar noxun (metaldan yasalgan maxsus chertmak-tirnoq) yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholgʻudir. Tanburning ikki yoki uch jez tori boʻlgan. Uning ikki turi maʼlum: Xuroson va Bagʻdod tanburlari. Bagʻdod tanburlarining maqomlari kamroq (beshta), cholgʻu dastasi kaltaroq boʻlgan. Xuroson tanburining maqomlari koʻp boʻlgan, dastasida cholgʻu boʻgʻzidan to dastaning yarmigacha oraligʻida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha oʻz shaklini yoʻqotmay, musiqa

ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Forobiy, shuningdek, nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli cholg'ularini ovoz hosil qilishi prinsipiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi.

Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda xam Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vietnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizga, ozarbayjonlar ney (juda kam uchraydi), qirg'izlar uoo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar nay deb ataydi. Olim ko'pincha tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi.

Forobiy, shuningdek, dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamish naychalardan tuzilgan cholg'u)ga o'xshaydi.

Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi Qashqar rubobiga o'xshab, rezanator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan. 1 yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, 2 pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiy shahodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan. «Cholg'u asboblari haqida kitob» da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

Yashagan davriga ko'ra Buyuk olim ibn Sino Forobiyga juda yaqin. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusining "Musika haqida risola" bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolalarda cholg'ular ta'rifiga anchagina o'rin ajratilgan. Ibn Sino o'z davri musiqalarini ikki guruhga bo'ladi: mizrobli, noxunli (barbod, tanbur, rubob) va butun rezanator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ulari (shohruh, chiltor, lira, chang, arfa).

O'sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfuddin Urmaviy musika ilmi tizimi (sistemasini) rivojlantirdi. U usta cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib, olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvadorlik kitobi"da cholg'u asboblari ichida ud eng mashhur va eng zamonaviyidir deb ta'kidlaganlar. Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masna, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qo'sh torli takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan. Udning kvartaga sozlangan besh qo'sh tori va yetti maqomi (ladasi) haqida SHeroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), al-Husayniy, Marogiy, ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning "Musika haqidagi risola"sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Olimning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy yetuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinglovchilariga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy cholg'ular haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musika madaniyati, chunonchi, O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganish uchun qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari, torli mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi. Risolada yozilishicha, chang cholg'uchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti torli va yetti pardasi bo'lgan. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak, musiqa, ekbon-nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo'biz, g'ijjak o'sha davrda keng tarqalgan cholg'ular edi.

Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblida uyg'un kalorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli -kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abudullohlar, Mavlono Qosimi- Rabboniy, Sulton - Ahmadiy - "devona" rubobchilar, aka-uka Shayx Abu - Bakri Rabboniy va Shayx Behduchi, dono qonunchi shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olingan.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qo'biz, doira, nog'ora, ud) O'rta Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlargacha saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy xayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rinlidir. Abdul Fazl Boyhaqiy (XIV asr) asarlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur), damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singarilarning nomlari keltirilgan.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlariga javob yozish («nazira») sistemasi keng qo'llanilgan. Ko'plab «Xamsa» lar ham shu yo'sinda yaratilgan. Navoiy o'zining «Sab'ai sayyor» («Xamsa» dostonlarining biri) dostonida Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani, yangicha talqin etdi. Asar

qahramoni - chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Zahriddin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan. «Boburnoma»da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Bobur, shuningdek, Shoh Kulmiy-G'ijjakiy, Husayn Udiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi.

Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrga kelib, O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrolik madaniyati o'z kamolotiga yetdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulamon ijrochilari va yetuk xonandalari bo'lgan, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Vosifiy o'z «estaliklar» ida treldek ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq orasida keng tarqalgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material bo'lgan.

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlargacha yetib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda.

Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish

XVII-XIX asrlarda cholg'ular batafsil ta'riflangan yirik asarlar yaratilmadi. Bu ko'proq feodal tarqoqligining kuchayishi bilan bog'liq. Ulkan davlat ayrim-ayrim xonliklarga bo'linib ketadi. (Buxoro, Xiva, Quqon xonliklari). Bu esa

musiqa san'ati taraqqiyotida aks etmay qolmadi. O'zbek musiqa madaniyatida mahalliy xususiyatlar kasb eta boshladi. O'ziga xos musiqa cholg'ulari shakllandi. Musiqa turlaridan-maqomlar bundan buyon har xonlikda o'ziga xos yo'nalishda takomillashdi. Maqom ijrochilari zarurat yuzasidan o'zgarishlar kiritishdi. Shunga qaramay, musiqaning umumiy xususiyatlarini saqlab qolishdi. Har bir ijrochi maqom ijrosiga ijodiy yondashib, musiqa ijrosiga o'ziga xos takrorlanmas jihatlar kiritdi. Og'zaki tarzda cholg'ularni saqlab qolish an'anasi maqomning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, busiz uning yashab qolish va so'nggi taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Har bir xonlikda o'ziga xos bir yo'nalishda xalq musiqasining yangi turlari yaratildi; bayramona, kuylar, xalq tomosha kuylari (dorbozlik, ko'g'irchoqbozlik) yangi tipdagi raqs kuylari. Bu kuylar o'zining quvnoqligi, sho'xligi bilan bir-biridan farq qilib turgan va keng xalq ommasini o'ziga jalb etgan.

XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining quyidagi ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi; katta ashula, katta o'yin, Shodiyona, Navro'z, Mavrigiy, Shashmaqom, Chor maqom (unga Dugoh, Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg'ulari va ijrochilarga bog'liq holda turlicha cholg'u ansambllari tuzilgan. Ko'p hollarda xalq cholg'ulari ansambl tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo'shnay, doira kabi musiqa cholg'ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo'lgan. U O'rta Osiyo xalqlari syuita (turkum) shaklidagi professional musiqasining uzoq taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. I. Rajabov yozadi: Shashmaqom olti xil turli lad sistemalaridan iborat, ularning har biri, o'z navbatida, mushkilot (cholg'u) va nasr (ashula) bo'limlaridan iborat bo'lgan quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo'linadi:

«Rost», «Buzrug», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» ...

Har bir maqom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o'z ichiga oladi. Hammasi bo'lib turkumda 250 ga yaqin mushkilot va nasr qismlari bor. Bir maqomning ijrosi bir necha soat davom etgan.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va sinfik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg'uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sa'diy, Navoiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Maqomlar asosan saroy ayonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitlarda ijro etilgan. Hatto mohir qo'shiqchilarning o'ziga xos musobaqasi (ayniqsa, avjlarni ijro etishda, shuningdek, yangi qismlarini to'kishda) tashkil etilgani ma'lum.

Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish davom etdi. Maqom o'zining oxang va ritm qonuniyatlariga ko'ra xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat qamrovining kengligi bilan farqlanar edi. Odatda, har bir maqom ikki katta qismga bo'lingan.

Birinchisi – faqat cholg'ularda ijro etilgan qismi bo'lib mushkilot deb atalgan, ikkinchisi – cholg'ular jo'rligida aytiladigan ashula qismi bo'lib, nasr deb atalgan. Nasr o'z ichiga raqs kuyi-uforni ham olgan.

Cholg'uchilar orasida musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar sistemasi notatsiya yaratishga intilish paydo bo'ldi. Buni amalga oshirish shoir-musiqachi Pahlavon niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879) ga nasib etdi. Iste'dodli musiqa ijrochisi mohir tanburchi va g'ijjakchi Paxlavon niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha kuy chalayotgan cholg'uchilarni ko'rib hayratga tushdi. Mirzaboshi - Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgaridan diliga tugib yurgan niyati maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi.

Paxlovon niyoz Mirzaboshi Komilning shogirdi Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939) mashhur tanburchi edi. U nafaqat chog'uchilik san'atini, balki hattotlik san'atini ham mukammal egallagan edi. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansambilining sozandasi bo'lgan Muhammad Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur notatsiyasini tuzishda va xorazmcha maqomlarni yozib olishda qatnashgan. Ustozidan xorazmcha maqom turkumlarini qabul qilib, ularning saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Hojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi.

Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga «Shashmaqom»ni o'rganish uchun borgan.U Buxorodan qaytgach, buxorocha maqomlar Xiva cholg'uchilari tamonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi. Xorazmning mashhur cholg'uchilari Muxammadrahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muxammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon shahri mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylangan edi. Bu yerda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Farg'ona cholg'ulari buxorocha shashmaqomni faol o'zlashtira boshladi. Ota - Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o'qituvchi, cholg'uchi, usta tanburchi edi. U dastlab musiqa ilmini onasidan o'rgandi, so'ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo'lgan otasidan ta'lim oldi. Ota-Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shahrisabz)," Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy)lar saroyida o'zbek xalq cholg'ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo'lgan. Ota G'iyos Abdug'ani (1858-1924) o'zbek musiqasining bilimdoni, buxorolik tanburchi edi. U Shashmaqomning Mushkulot qismini yaxshi bilgan va har bir maqomni unga xos usul va xususiyatlarni saqlab qolgan holda ijro etgan.

Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) o'zbek va tojik musiqasining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Hoji Raximqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga bordi.U yerda Ota-Jaloliddin Nazirov raxbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o'rgandi. A.Rasulov Farg'ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o'zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ'ib qildi. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salmoqli hissa qo'shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan musiqachi-cholg'uchilar o'z ijodiy yo'lini

boshlab o'z davrida ijodiy kamolotga yetdilar. Ular hammasi ma'rifatchilar, yosh musiqachilarning ustozlari edilar. Ularning pedagogik karashlari, ta'limotlari o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha yangi pedagogik hayotiy manba bo'lib, o'lmas meros sifatida saqlanmoqda.

1917-1945 yillarda ijrochilik san'atining taraqqiyoti:

1917-yildan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jo'shqin taraqqiy etib boshladi. Birinchi o'n yillikdoyoq musiqa ta'limi, fol'klorshunoslik, ijrochilik san'ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildi.

Musiqa o'quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqanddagi, Farg'onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ularini hamda ba'zi Ovrupacha musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ulari) ni chalish o'rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi konservatoriya bo'lmasa-da, biroq, o'tgan davr musiqa madaniyati ilmini o'rganish imkoniga ega bo'lmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi hamda ijro san'atida saboq berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloch yoydi.

O'zbek san'atining asoschisi, dramaturg, bastakor, muallim, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqa san'ati rivojiga katta xissa qo'shdi.

1917- yilgacha bo'lgan davrdagi xalq musiqachi va ijrochilari yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodi ijodida tarkib topdi va davom etdi. Musiqachi-ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shorahim Shoumarov 1919- yilda Toshkentdagi «Namuna» maktab-internati qoshida xalq cholg'ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

20-yillarda o'quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda «Ko'k ko'ylak», «San'atchi qizlar», «Sanoyi nafisa» kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, changchi, dutorchi, tanburchi,

g'ijjakchi, doirachi, nog'arachilar va qashqar rubob sozandalari bo'lgan xalq cholg'ulari ansambllari ham bor edi.

Xalq cholg'ulari ansambllari Farg'onada, Andijonda, Samarqanda ham tuziladi. Ularga mashhur cholg'uchilar usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmadjon Umirzoqov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ro'zmat Isaboyev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muhiddin Mavlonovlar rahbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik bahramand bo'ldi.

1936 -yilda Moskvada bo'ladigan dekada munosabati bilan Qori Yoqubovga Davlat filarmoniyasini tuzish topshiriladi, u filarmoniyaning birinchi direktori etib tayinlanadi. Qori Yoqubovning va boshqa musiqa san'ati arboblarning qat'iyligi tufayli, Toshkent Davlat Konservatoriyasini tuzish haqida qaror qabul qilinadi.

O'zbek xalq musiqasi an'alarining davomchisi, Toshkentlik mohir xalq cholg'uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga ma'rifatparvarlik keng musiqiy-ijtimoiy xususiyatlar xos edi. Besh jildlik o'zbek xalq musiqasini yozib olib, nashrga tayyorlaganligi Yunus Rajabiyning ko'p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi bo'ldi.

1927-yili Yunus Rajabiy O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uvchi (xonanda va sozandalar) dan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambli tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagi o'sha paytda mashhur musiqachilar - qo'shnaychi Xayrulla Ubaydullayev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajapov, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, Mahamatjon Rasulov, doirachi Dadaxo'ja Sottiyevlarni jalb etdi. Repertuarida o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning «Chorgoh», «Ko'chabog'i», «Bayot», «Birlashingiz», «Fabrika», «G'alaba», «Hammamiz», «Ilg'or», «Mirzadavlat» kabi asarlari bor edi. Keyinroq bu ansamblida respublikaning mashhur xonandalari Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Buxorolik domla Halim Ibodov,

Samarqandlik dutorchi va xonanda hoji Abdurahmon Umarov, tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mugoniy, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san'atkorlar ishlagan. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari «Shashmaqom»ning mushkulot va nasr qismlari: «Nasurulloi», «Navro'zi Sabo», «Talqini ushshoq», «Sarvinozi talqincha», shuningdek, bastakorlarning «Uyg'oning», «Bizning qishloq», «Yashasin», «Kolxozimiz» kabi asarlar hisobiga kengaydi.

1930 -yilda Toshkent musiqa oliy maktabi, 1936 yilda esa uning asosida O'rta Osiyoda birinchi musiqa oliy o'quv yurti - Toshkent Davlat konservatoriyasi ochildi.

1936-1937 o'quv yili xalq cholg'ularida ijrochilik sohasida musiqiy ta'lim rivoji uchun juda muhim davr bo'ldi. Aynan shu davrda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Y.Rajabiy, A.Daroshev, A.Mansurov, B.Giyenko, N.Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A.Maxsudov, O.Qosimov kabi o'qituvchilar umummaqbul nota sistemasi asosida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha saboq bera boshladilar. Sh.Shoakramov, A.G'ofurov, M.Yunusov (chang), S.Yuldoshov, G.Qodirov (tanbur), A.Ilyosov, M. A'zamov kabilar ularning birinchi o'quvchilardan bo'lishdi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o'sishi, jahon sinfik bastakorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo'ydi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog'langan.

1948- yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan; M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida ham xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha ta'lim berish boshlandi.

O'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga (orkestr fakulteti tarkibida) rahbarlik qilish, o'quvchilarni saralab yig'ish, o'quv rejalarini tuzish A. I. Petrosyans tomonidan amalga oshirildi. Toshkent Davlat konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha professional ta'limni yo'lga qo'yishda V. A. Uspenskiy, M.A.Ashrafiy, A.I.Petrosyans, I.P.Blagoveshchenskiy, B.F.Giyenko, G.G.Sobitovlar katta rol o'ynashdi.

1948-49- yillardagi birinchi o'quv yilida konservatoriyaga O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining 13 cholg'uchisi o'qishga qabul qilindi. Shulardan 10 kishi: Nazir Nigmatov (qo'shnay), Abbos Bahromov, Aleksandr Yevdokimov (prima-rubob), La'li Sultonova, Mirzayev, Buriboy Mirzaahmedov (qashqar), Mahamatjon Asilov, Obid Xolmuhamedov (g'ijjak), Anvar Liviye (doyra) 1-kursga qabul qilindi. Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining bitiruvchilari Axmadjon Odilov (chang), Valentina Borisenko (prima rubobi), Feoktist Vasilyevlar (qashqar rubobi) esa 2-kursga qabul qilindi.

Muhammadjon Mirzayev (1913-yilda tug'ilgan) respublikadagi rubobchilarning eng mashhuri, kuychi-bastakori. Konservatoriyani qashqar rubobi sinfida A.I.Petrosyans raxbarligida tamomlagan. 1951-yildan filarmoniya orkestrida ishlash bilan bir qatorda, o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish bo'yicha yosh ijrochilarga murabbiylik qilib kelgan. Xalq artistlari X.Mavlonova, M.Turg'unboyevlar bilan ijodiy hamkorlikda «Bahor vals», «Yangi tanovar», «Gulnoz», «Dilbar», «Gulxumor», «Dildor» kabi lirik qo'shiqli raqs kuylarini yaratgan. U yaratgan qo'shiqlar orasida «Shirmonoy», «Oltin sandiq», «Uch dugonalar» ayniqsa mashhurdir. M.Mirzayev O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi a'zosi va bir qancha mukofatlar sohibi. Rubob ijrochiligida (keyinroq yosh ijrochilar tomonidan rivojlantirilgan) hissiy va yorqin uslub asosini yaratgan dastlabki rubobchilardan hisoblanadi.

Mirza Hakimovich Toirov (1930-yilda tug'ilgan). Konservatoriyani nay ixtisosligi bo'yicha tamomlagan dastlabki bitiruvchilardan biri (1956). U o'z ustozlari A.I.Petrosyans bilan hamkorlikda «Nay maktabi» o'quv qo'llanmasini yaratgan. Ushbu qo'llanma O'zbekistondagi barcha musiqa bilim yurtlarida, shu

bilan birga, qo'shni respublikalarda ham nay sinflarining ochilishiga imkon yaratdi. M.Toirov 1957- yildan ijrochilik kafedrasida avval o'qituvchi, so'ngra dotsent bo'lib ishlagan. Ayni bir paytda T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida ham ishtirok etgan. M.Toirov musiqa ijrochilari Butunittifoq konkursining (1957) hamda Yoshlar va o'quvchilarning VI jahon festivalining sovrindori (1957), Moskva, Estoniya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikistonda bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadalarida qatnashgan. M.Toirov bir necha iste'dodli naychilarni tarbiyalab kamol toptirgan. Uning I.Qosimov, O.Azizov, Sh.Ahmadjonov, R.Xolmirzayev, K.Yusupov, A.Abdurashidov kabi shogirdlari respublika ko'riklarining sovrindori bo'lishgan. M.Toirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1969).U 1987- yildan konservatoriyaning professoridir.

Fozil Matyusupovich Xarratov (1926-1971) taniqli changchilardan biri edi. Musiqa bilimi va ijrochilik ilk sabog'ini o'z otasi, mashhur changchi Matyusuf Xarratovdan oldi. Otasi (M.Xarratov) farzandining istagiga ko'ra, unga yarim xromatik tovush qatoriga mansub yangi chang yasab beradi. 1942-yilda F.Xarratovlarning oilasi Toshkentga ko'chib keladi. Fozil bu yerda avval Toshkent davlat sirkining aralash musiqa ansamblida ishlaydi.U 1950-55 -yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasida A.Odilovning chang cholg'usi sinfida o'qiydi.Keyin bir oz vaqt konservatoriyada dars beradi. Uning shogirdlari orasida G.Ne'matov, F.Shukurova, T.Xo'jamberdiyev kabi taniqli ijrochilar bor. F.Xarratov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalining sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1964). U «Hurmat Belgisi» ordeni bilan mukofotlangan.

Feoktist Nikiforovich Vasilyev (1919—1987) dastlabki professional qashqar rubobi ijrochilaridan biridir.U 1937 -yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi.1938 -yildan O'zbekiston filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining cholg'uchisi edi.Ulug' Vatan urushi yillarida Turkiston harbiy okrugining ashula va raqs ansamblida ishlagan. Konservatoriyani qashqar rubobi sinfi bo'yicha A.I.Petrosyans rahbarligida tamomlagan (1952). 1949-yildan

konservatoriyada qashqar rubobi, dutor, tanbur ixtisosligi bo'yicha dars bergan. S.Taxalov, A.Boboxonov, G.Ergashev, T.Rajabov, Q.Usmonov kabi mashhur rubobchilar uning qo'l ostida tarbiyalanganlar. Feoktist Nikiforovich o'zining ilmiy-metodik ishlarida («Rubob maktabi» darsligi) «qashqar rubobi uchun etyud va mashqlar» rubob chalishni o'rganish bo'yicha sistemali o'qitish metodini ishlab chiqdi. 1983- yildan F.Vasilyev professor vazifasini bajaruvchi bo'lib ishlagan edi.

Feoktist Nikiforovichning nomi o'zbek musiqa madaniyati hamda 40 yilga yaqin murabbiy bo'lib xizmat qilgan Toshkent konservatoriyasi bilan chambarchas bog'liq. Valentina Yakovlevna Borisenko (1919—1990) o'zining ijodiy yo'lini O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrida cholg'uvchi bo'lib boshladi (1939). Prima rubobi ixtisosligida ijrochi va o'qituvchi sifatida tanildi. Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tugatgach (1948), Borisenko orkestrning torli-noxunli cholg'ular guruhida konsertmeyster bo'lib ishladi. Konservatoriyani prima rubobi ixtisosligi bo'yicha I.G.Blagoveshchenskiy rahbarligida tamomladi (1952). So'ngra orkestrda ishlashni davom ettirdi. Ayni chog'da u 1950 -yildan Toshkent konservatoriyasida o'qituvchi, 1962-yildan esa xalq cholg'ulari kafedrasining dotsenti bo'lib ishladi. Borisenkoning mashhur shogirdlari orasida A.Malikov, G.Salayeva (Obidova), B.Yo'ldoshev, M.Rahimov, B.Azimov, Sh.Janaydarov, A.Dadamuhamedov kabi ijrochilar bor.

Sulaymon Maniyevich Taxalov (1942 -yilda tug'ilgan) ajoyib ijro texnikasiga va alohida tovush jozibasiga ega bo'lgan, an'anaviy va akademik ijro usulini birdek mukammal egallagan rubobchilardandir. Konservatoriyada o'qishni tugatgach, F.N.Vasilyev sinfida (1958) qashqar va afg'on ruboblari hamda tanbur ixtisosliklari bo'yicha saboq berdi. S.Taxalov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalida ishtirok etgan (1957). U xalq cholg'ulari ijrochilari Butunittifoq konkursining o'zbek xalq musiqasi nota yozuvi va tavsifini takomillashtirish sohasida katta ilmiy-tadqiqot ishlarining sohibi. U «Afg'on rubobini, chalishni o'rgatish metodikasi asoslari» nomli o'quv qo'llanma muallifidir.S.Taxalov 1985 -yildan dotsent, 1988- yildan esa san'atshunoslik fanlari doktori, professor.

Abdusalom Malikovich Malikov (1939—1979). Dotsent vazifasini bajaruvchi boʻlib xizmat qilgan. A.Malikovning rubob-prima ixtisosligi boʻyicha 60—65-yillarda konservatoriyada V.Y.Borisenko rahbarligida olib borgan ijodiy faoliyati alohida eʼtiborga loyiq. U 1967- yildan xalq cholgʻulari ijrochilik kafedrasida ishlagan. I Respublika koʻrik-tanlovining sohibi (1971).

Gʻulomqodir Ergashevich Ergashev (1946-yilda tugʻilgan). Toshkent konservatoriyasining sobiq oʻquvchisi (1969). F.N.Vasilyevning shogirdi, afgʻon rubobi ijrochisi, turli xil dasturlar bilan tez-tez konsertlarda qatnashib turadi. 1967-yildan TDKsida oʻqituvchi, 1988-yildan kafedra dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

Xalq cholgʻu asboblari oʻziga xos takomillashuv jarayonini bosib oʻtdi. Keyingi paragrafda uchbu jarayon haqida soʻz boradi.

I.2 XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING TAKOMILLASHUV JARAYONI

Chang musiqa cholg'usi tanburning o'ttiz ikki pardasidan olinib ixtiro qilingan. Ba'zi rivoyatlarda go'yo Arastun (Arestotel) Hakim Zuhro yulduziga qiyos qilib ixtiro qilgari deyiladi³. Undan tashqari Abdulqodir Marog'iy o'zining "Maqosid ul alhon"("Kuylar maqsadlari") kitobida chang musiqa cholg'usini yuziga teri tortilgan unga 24 ta tor ikki tomoniga ip bilan bog'lab qo'yilgan" degan ma'lumot berilgan bo'lib, noxun (tirnoq) vositasida ijro etilgan. Qadimgi chang musiqa cholg'usining bir turi bu cholg'uning yuz qismiga teri emas balki yog'och qoplangan. Torlari ip bilan emas cho'plar vositasida berkitib qo'yilgan.

Fozirgi kunda O'zbekiston hududida musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan "Chang" nomli musiqa cholg'usi Sharq va boshqa xalqlarning milliy musiqa ijrochiligida turli xil nomlanishlarga ega. Belarusiya va Ukrainada - simbala. Uyg'ur xalqlarida - chang, Eronda-santur deb nomlanib O'zbekistondagi - "Chang" musiqa cholg'usiga o'xshash. Ko'pgina musiqiy risolalarda zikr etilgan "Chang" cholg'usi hamda XVI asrlarda yashagan Darvesh Ali Changiy ijro etgan "Chang" nomli musiqa cholg'usi tamoman boshqa ko'rinishda bo'lib, hozirgi kunda musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan "Arfa" musiqa cholg'usining aynan o'zidir.

Chang so'zi sozandaning o'ng va chap qo'llari bilan changga panjalar orqali "Chang solish" vositasida musiqa ijro etish ma'nolarini anglatadi. Qadimiy "Chang" musiqa cholg'usi "Arfa"ga o'xshash bo'lib, Sharq xalqlari milliy musiqa ijrochiligida qo'llanib kelingan. Bu turdagi chang Ozarbayjon musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan kitobda berilgan⁴. Undan tashqari XVIII-XIX asrlarda Ozarbayjonda changga o'xshash "Nuzxa" va "Migni" nomli musiqa cholg'ulari bo'lib, ular aynan chang va qonunga o'xshash bo'lib, "Nuzxa"da 81 tor, "Migni"da 33 ta tor uch qatordan tortilgan bo'lgan va bu turdagi chang musiqa cholg'ulari sozandaning o'ng va chap qo'l barmoqlari, tabiiy tirnoqlari vositasida ijro etilgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda "Chang" cholg'usi milliy va zamonaviy musiqa ijrochiligida keng

³ Nag'mai niyogon. Tahqiq va tahiylai A. Rajabov. Dushanbe. Adib, 1988.124 s..

⁴ C. Abdullayeva. Narodniye muzikalniye instrumenti Azerbaydjana. Baku. 1972.14 s.

miqyosda qo'llanilmoqda. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarrotov, Ahmad Odilov, Rustam Negmatov, Abdurahmon Xoltojiyevlar o'ziga xos chang ijrochiligi maktabini yaratgan ustozlar hisoblanadi. Ularning ijrochilik an'alarini yosh changnavoz shogirdlari Tilash Xo'jamberdiyev, Temir Mahmudov, Anvar Lutfullayev, Fazilat Shukurova, Abdusalom Mutalov va I.Rajabov, A.Qodirova, Z. Boymirzayeva boshqalar davom ettirmoqdalar.

Chang musiqa cholg'usining tovushqatori uch oktavadan iborat bo'lib, birinchi tovush "sol" ovozidan boshlanadi, chang ijrosi katta qamishdan yasalgan ikkita cho'pcha vositasida ijro etiladi. Chang musiqa cholg'usi to'g'irisida ko'pgina ma'lumotlarni quyidagi kitobdan olish mumkin⁵.

Qonun musiqa cholg'usi. Sharq xalqlari musiqa ijrochiligining cholg'u yo'li ijrosida qonun musiqa cholg'usining ham o'ziga xos o'rni bo'lib, musiqa ijrochiligida keng qo'llaniladi. Qonun so'zining lug'aviy ma'nosi musiqa ilmining qonuni, tartibga keltirilishi ma'nolarni anglatadi. Zaynulobidin Mahmudiy Husatniy o'zining "Qonuni ilmi va amali musiqiy" ("Musika ilmining amaliy va nazariy qonunlari") asarida sozlar, ovozlar, musiqiy asarlar haqida ma'lumot bergan. Qonun musiqa cholg'usi Arabiston, Eron, Turkiya, Kavkaz xalqlari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilib kelinmoqda. 1972- yilda O'zbekiston Davlat Konservatoriyada professor Fayzulla Karomatov rahbarligida "Sharq musiqasi" kafedrasini tashkil qilinishi, to'g'irida hozirgi kungacha qonun sinfi bo'yicha O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyev ustozlik qilib kelmoqda. Dushanbadagi san'at institutida 1979- yilda musiqashunos Asliddin Nizomov rahbarligida "Sharq musiqasi" kafedrasini tashkil qilinishi, qonun sinfi bo'yicha Almasxon Abdullayev ustozlik qilib kelmoqda. Hozirgi kunda O'rta va Oliy musiqa dargohlarida qonun sinflari faoliyat ko'rsatib, qonun ijrosi o'rganilmoqda. Qonunda 24 - 25 ta uch qator ichakdan tayyorlangan torlar tortilib, uning hosilasi "sol" kichik oktavadan "si" ikkinchi oktavagacha. Qonun sozandaning ikkala ko'rsatkich barmog'iga moslab tayyorlangan aylana mis va shoxdan tayyorlangan mizrob vositasida ijro etiladi.

⁵Ahmad Odilov, Anvar Lutfullayev. Chang. Toshkent. 2002 y..

Ud musiqa cholg'usi. Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida eng qadimiy musiqa cholg'ularidan biri bu "Ud" cholg'usi bo'lib, butun Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qariyb X asr davomida yetakchi soz hisoblanib, amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. "Ud" musiqa cholg'usining yaratilishi haqida turlicha ma'lumotlar berilgan. "Ud" so'zining lug'aviy ma'nosi "Qora daraxt" dir.(• Ya'ni qora daraxtdan tayyorlangan musiqa cholg'usi). Udning dastlabki nusxasi yunon olimi -Fishog'urs' (Pifagor) hakim tomonidan ixtiro qilingan deyiladi⁶. Udning ikkinchi nomi "Barbat" deb nomlanib bu so'z ikki ma'nodadir.Bar-qomat, bat-o'rdak; ya'ni o'rdak qomatiga o'xshash musiqa cholg'usi ma'nosini anglatadi. Ma'lumki musiqa tarixida sharq musiqa ijrochiligining asoschisi, sharq musiqa madaniyatining rivojiga o'z hissasini qo'shgan sozanda, xonanda, bastakor Barbat Marvaziyning nomi zikr etilgan bo'lib, bu sozanda O'rta Osiyoning Marv(Mari) shahrida yashaganligi, uning yetuk ijrochilik mahorati Eron podshohi Xusrav Parvizda katta tasurot qoldirganligi va shoh saroyida faoliyat ko'rsatib, shohga atab "Xusravoniy" nomli musiqiy asarlar bastalaganligi hamda bu asarlar uzoq vaqtlar davomida Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida ijro etilganligi haqida juda ko'p ma'lumotlar berilgan. Demak Barbat Ud (Barbat) cholg'usini yetuk ijrochisi bo'lgan.Shu bois ud musiqa cholg'usiga ikkinchi nom Barbat berilganligi, yoki Barbat Marvaziygga udning ikkinchi nomi bo'lmish "Barbat" taxallusi berilgan bo'lishi ham mumkin.

Umuman "Ud" musiqa cholg'usi VII asrdan to XVIII asrlarningoxirigacha barcha Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida maqom asarlaridan "12 Maqom" nomi bilan ataluvchi musiqa asarlari ijro etilgan. "12 Maqom" asarlarini ijrolari esa "Ud" musiqa cholg'usining soz va pardalariga mos holda ijro etilgan. VII asrdan to XVIII asrgacha yozilgan barcha musiqa asarlarida (kitob, risola, o'zga manbalarda) faqat "12 Maqom" va "Ud" musiqa cholg'usi haqida ma'lumot berilgan. Bu ma'lumotlarni Forobiy, Urmaviy, Jomiy, Navoiy, Sheroziy, Kavkabiy, Husayniy, Darvesh Ali va boshqa mutafakkirlarning musiqa ilmiga bag'ishlangan asarlarida ko'rishimiz mumkin. Forobiy va Urmaviylar o'zlarining dastlabki "Sharq nota"

⁶ Is'hoq Rajabov.Maqomlar masalasiga doir. Toshkent. 1963 yil. 17. s.

yozuvi tizimini ham "12 Maqom" ijrosi va "Ud" musiqa cholg'usining sozi, pardalari, torlari umuman ijroviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratganlar. Shu davrlarda "Ud" sozi avval 4 keyin 5 torli va 7 pardali bo'lib, torlari: bam,, maslas, masna, zir, hodd tusida, pardalari esa: mutlaq, zoid, mujannab, sabboba, vustai furs, vustai Zalzal, binsir, xinsir kabi nomlar bilan atalgan. Ko'pgina insho etilgan musiqiy risolalarda "Ud"ning turli xil ko'rinishdagi, nomlanishdagi nusxalari, turlari haqida ma'lumot berilgan: Ud, udi komil, udi qadim, taraf rud, rud, shohrud, Barbat va hokazo. XVIII asrlarga kelib musiqa ijrochiligida "12 Maqom" asarlari turli davlatlarda turlicha talqin etilib, nomlanib ijro etilaboshlangan. Masalan: "12 Maqom" asarlari orasiga Eronda -"Dastgoh", Kavkaz xalqlarida "Mugam", Hindlarda "Raga", O'rta Osiyoning Buxoro shahrida "Shashmaqom" nomlari bilan atalib, bu asarlarni ijrosida endi "Ud" cholg'usi emas- "Dastgoh" asarlari ijrosida setor, komoncha, "Raga"asrlarini ijrosida Hind setori, "Shashmaqom" asarlari ijrosida esa tanbur asosiy musiqa cholg'usi hisoblanaboshlangan. "12 Maqom" nomli maqom asarlari hozirgi kungacha faqat Uyg'ur xalqlarida saqlanib qolgan va bu asarlar Uyg'ur tanburida ijro etiladi. Demak XVIII asrga kelib maqom nomli musiqiy asarlarning ijrolari "Ud" cholg'usida emas bal'ki yuqoridagi musiqa cholg'ularida ijro etilaboshlandi.

Tanbur va sato musiqa cholg'usi. Tanbur musiqa cholg'usi ikki xil ijro yo'li asosida musiqa ijrochiligida qo'llanib kelingan. Ya'ni noxun (mizrob) va komon vositasida ijro etilgan. Komonli tanbur haqida Omuliy keyinchalik Abdulqodir Marog'iy o'zining "Maqosid-ul-alhon", (Kuylar maqsadlari) asarida 40 ga yaqin musiqa cholg'ulari haqida ma'lumot berib, tanburning komon vositasida ijro etiladigan nusxasi "Nay tanbur" haqida ma'lumot bergan. Bizning davrimizda esa 1920 -yillardagi musiqa ijrochiligi ya'ni "Shashmaqom" asrlarini ijrosi haqida ma'lumot berib, Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek sinfik musiqasi va uning tarixi" kitobida shunday fikr bildirgan."Shashmaqom" asarlari ikki yo uch tanbur jo'rligida ijro etilib, uch tanburdan biri komon vositasida ijro etilgan.Agarda bir tanbur komon vositasida ijro etilmaganda uning o'rniga qubuz cholg'usi jo'r bo'lgan.

Demak, sozandalar ba'zan tanburni komon vositasida ijro etishgan. Dastlabki o'zbek teatri Yangi Yo'l shahrida tashkil qilinib, O'zbekistonning eng yetuk rejissyorlari, aktyorlari, sozandalari va xonandalari ushbu teatrdagi faoliyat ko'rsatishgan. Yetim Bobojonov, Yunus Rajabiy, Turg'un Alimatov va boshqalar. 1957- yilda esa O'zbekiston radiosi va televideniya qoshida Yunus Rajabiy rahbarligida milliy, maqom an'sambli tashkil etilib, eng yetuk sozanda va xonandalar bu an'samblga taklif etiladi. Jumladan Turg'un Alimatov ham tanbur cholg'uchi sozanda sifatida taklif etilgan. Yunus Rajabiy Turg'un Alimatovga o'z xohishini bildirib, eng yetuk ustozlardan Sultonxon Hakimov, Ma'rufjon Toshpo'tatov, Fazliddin Shahobov va boshqalar ba'zan tanburni komon vositasida ijro etishgan. Shu bois Turg'un Alimatov shu an'anani qayta tiklashi haqida fikr yuritiladi.

Hozirgi biz fikr yuritadigan "sato" yoki "tanbur sato" haqida O'zbekiston xalq artisti O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining professori Turg'un Alimatov xalq ustasi Usto Usmon Zufarovga murojaat qilib, bir tanbur kattaroq ko'rinishida bo'lib, bunda ham noxun, ham komon vositasida musiqa ijro etilishi lozimligini aytadi. Ustaxonaga kelib Usto Usmonga bu xohishni bildiradi va ustaxona burchagida chang bosib yotgan musiqa cholg'usini ko'radi. Bu musiqa cholg'usi 1937 -yilda O'zbekistonning Moskva bo'lib o'tgan birinchi dekadasiga bag'ishlab tayyorlanib, ko'rgazmada namoyish etilib, shu yildan 1957- yilgacha ustaxonada saqlangan. Ushbu musiqa cholg'usi olinib uning parda, qopqoq, xarrak kabi qismlari yangilanib qayta ta'mirlandi va Turg'un Alimatov tomonidan komon vositasida musiqiy asarlar ijro etilaboshlandi. 1937 -yilda O'zbekistonning 1-chi dekadasini Moskva shahrida o'tishi munosabati bilan Usto Usmon Zufarov tomonidan barcha o'zbek milliy cholg'ularini ko'pgina ko'rinishdagi turlari qayta tayyorlanib, dekadada namoyish etiladi. Tanbur sato ham ko'rgazma uchun Moskvada namoyish etiladi. Lekin hech bir sozanda uni ijro va soziga qiziqmagan. Turg'un Alimatov bu cholg'uni ba'zi bir qismlarni yangilab ijrochilikka ham tanbur, ham sato uslubida ijro eta boshladi. Dastlab Turg'un Alimatov "Navo" nomli musiqiy asarini tayyorlab ijro etgan. Bu radio va televideniya orqali namoyish

etilgach, bu musiqa cholg'usini tanbur singari "noxun" vositasidagi ijrosi "tanbur", komon vositasidagi ijrosi "sato", yoki "tanbur sato" deb atala boshlangan. Keyingi yillarda Turg'un Alimatov juda ko'p musiqiy asarlarni sato ijrochiligi yo'lida ijro etib, o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratib, "Sato navolari" nomli plastinka yozuvini shinavandalarga hadya etgan.

Sato - so'zining asl ma'nosi shundan iboratki, "sato" so'zi "sado" yoki "setor" so'zidan olingan. Aniqrog'i setor so'zini Uyg'ur tilidagi talaffuzidan olingan. Uyg'ur xalqida ham maqom asarlarini "marg'ul" nomli ijroviy bo'laklari tanburning komon vositasidagi ijrosi asosida ijro etiladi. Ya'ni setor so'zini uyg'ur tilidagi talaffuzi "satar" so'zidan olingan bo'lib, Uyg'urlarda komonli tanbur- "sato" yoki "satar" deb atalgan. Shunday qilib ushbu "sato" so'zining atamasini yuqoridagicha izohlash mumkin.

Sato ijrochiligida g'ijjak cholg'usidagi ijroviy zarb va bezaklari qo'llaniladi. Faqat "Zarbi oro" zarbi tanburda noxun vositasida, "sato" yoki "tanbur sato" da ko'rsatgich barmoq vositasida ijro etiladi.

Dutor musiqa cholg'usi. Dutor ham tanbur oilasiga mansub musiqa cholg'ularidan hisoblanadi. Chunki tanburning dastlabki nusxalari ikki torli bo'lib dator deb ham atalgan. Dutorning yasaliish tartibi ham aynan tanburdek, faqat kosaxonasi bo'lak-bo'lak cho'plardan tayyorlanadi. Ya'ni kosaxonani tayyorlash uchun maxsus qolab (qolib) yasaladi. Torlari ikkita bo'lib, avval ipakdan, keyinchalik esa ichakdan tayyorlangan. 1920 -yillarda Buxoroda 13-14 pardali datorlar bo'lib, datorlarda maqom asarlari ijro etilmasligi, xarragi past bo'lganligi uchun ijrochilarini o'z panjaralarini dator kosaxonasiga tegib ketishi, lekin dator ijrochiligida Samarqandlik ustoz Hoji Abdulaziz Rasulov dutorda mohirona ijro etganligi uchun ham uning dator chalish mahoratiga yuqori baho beriladi⁷. Eronda tanbur nomli musiqa cholg'usi bo'lib, lekin dutorga o'xshab panja vositasida musiqiy asarlar ijro etiladi. Dutor cholg'usi O'rta Osiyo hududida uchraydi.

⁷ A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993.29 s.

Qozogiston, Qirg'iziston, O'zbekiston hududidagi Qoraqalpog'iston avtonom viloyatlarida bir xil duior. O'zbekiston va Tojikistonda bir xil dutorlar mavjud.

O'zbekistonda esa ajoyib sado beruvchi dutorlar bo'lib, bu dutorlar Usto Tohir Buxoroiy va Usto Usmon Toshkandiylar tomonidan tayyorlangan bo'lib, keyingi yillarda xalq ustolari Usto Faxriddin, Usto Muhammad Siddiq, Usto To'xtamurodlar tomonidan tayyorlanayotgan dutorlar Usto Tohir va Usto Usmon tayyorlagan dutorlardan aynan nusxa olingan. Hozirgi kunda O'zbekistonda katta dutor, kichik dutor, qavurg'ali dutor, qozma dutor kabi dutorlar Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent mahalgohlarida uchraydi. Tojikistonning Ko'lob, Qorategin, Vanj mahalgohlarida ham turli xil dutorlar uchraydi. O'zbekistonning Oliy va O'rta musiqa dargohlarida Faxriddin Sodiqov, Orif Qosimov, Abdusamad Ilyosov, Boqijon Rahimjonov, Abdurahim Hamidov, Davron Baliqov, Ilyos Lutfullaev, Ahmadjon Abdurahimov va boshqalar dutor sinflari bo'yicha ustozlik qiladi.

Nay musiqa cholg'usi. Nay musiqa cholg'usi barcha sharq xalqlarida uchraydi. Ko'pgina davlatlarda nay musiqa cholg'usi yotiq holda ijro etilsa, ba'zi davlatlarda esa tik holda ijro etiladi.

Nay musiqa cholg'usining yaratilishi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Ulardan birida go'yo nay temirchilarning olovini havosi orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlono Safiuddin Al-Mo'min tomonidan ixtiro qilingan deyiladi⁸. Nay musiqa cholg'usi zardolidan, tutdan, g'arovdan, nuqra, kumush yoki misdan yasaladi. Unda yetti ovoz chiqaruvchi teshik pardalar bo'lib, bittasi alohida og'izdan nafas berish uchun, oltitasi bir joyda birin-ketin olti barmoqqa moslanib, bular asosiy sado chiqaruvchi aylana pardalar hisoblanadi.

1924 yillarda Buxoroda mavjud nay cholg'usi to'g'risida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: "Nay qamish ma'nosida forsiycha bir so'zdir. Nay "birinj" yo

⁸ Askarali Rajabov. Nag'mai Niyogon. Dushanbe. Irfbn.1988. 124 s..

"baqir"dan (kumush yoki mis) yasaladur"⁹. Ya'na bir asarda tanbur musiqa cholg'usini sozlanishida Buxoroda mavjud naylardan foydalanilganligi ya'ni mis nay-"sol", yog'och nay-"lya-bemol", g'arov nay-"lya" tovushlarini berib, asar ijrosida tanbur yuqoridagi naylardan biri - "sol", "lya-bemol" yoki "lya" tovushlariga soz qilinar ekan. (N.Mironov. Musiqa O'zbekov. Samarkand. 1929. 12 s.)O'zbekistonda nay musiqa cholg'usi musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llaniladi. Nay sozi ijrochiligida o'ziga xos ijrochilik yo'llariga ega bo'lgan Ustozlardan - Abduqodir Ismoilov, Homidjon Jalolov, Ayub Qodirov. Saidjon Kalonov, Halimjon Jo'rayev, Abdul Ahad Abdurashidov, Mirza Tohirov, Ahmadjon Sobirov, Tojikistonda esa Nison Shoulov va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbekiston Davlat konservatoriyasida nay sinfi bo'yicha professor Mirza Tohirov va dotsent Ahmadjon Sobirov ustozlik qiladi.

G'IJJAK MUSIQA CHOLG'USI

G'ijjak musiqa cholg'usi haqida turli man'balarda har xil ma'lumotlar berilgan. G'ijjaklar dastlab bir torli, keyin ikki va uch torli hozirgi kunda esa to'rt torlidir. Ozarbayjon musiqashunos olimasi Saodat Abdullayeva o'zining "Musiqalniye instrumenti Azerbaydjana". Baku. 1972. Bu kitobining 16 va 17 sahifalarida «Kemancha» va unga oiladosh «chegane» musiqa cholg'ulari haqida ma'lumot bergan. Fayzullo Karomatov o'zining musiqa cholg'ulari haqida yozgan kitobida "Boburnoma" asari haqida ma'lumot berib, bu asarda Qul Muhammad Udiy g'ijjakka uchinchi torni toqqanligi haqida ma'lumot beradi¹⁰.

O'zbekistonda g'ijjak va qubuz, Eron va Kavkaz xalqlarida "kemancha" nomlari bilan va unga oiladosh Hindiston, Pokiston, Afg'onistonda "dilrabo", Tojikistonning Ko'lob, Tog'li Badaxshon Avtonom viloyatida "jig'ak" (g'ijjak) musiqa cholg'ulari mavjud. 1937-yilda Moskva shahrida o'tkaziladigan o'zbeklarning birinchi dekadasiga bag'ishlab O'zbekistonda juda ko'p milliy musiqa cholg'ulari xalq ustasi O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan San'at arbobi Usto

⁹ Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent 1993 yil 33.s.

¹⁰F.Karomatov. Uzbekskeya instrumentalnaya muzika. Tashkent. 1972. 110 s.

Usmon Zufarov tomonidan qayta tayyorlanib, jumladan uch torli tanbur va g'ijjaklarga yana bir tor taqilib, ular to'rt torli bo'lgan.

Hozirgi kunda to'rt torli g'ijjaklar musiqiy ta'lim dargohlarida ijrochiligida qo'llanilmoqda. G'ijjaklarning to'rt torini birinchisi kichik oktava "sol" ikkinchi va uchinchi birinchi oktava "re" va "lya", to'rtinchi tori esa ikkinchi oktava "mi" tovushlariga sozlanadi. G'ijjak ijrosi uchun esa ot dumidagi tabiiy va maxsus tayyorlangan sun'iy oppoq qil torlaridan "komon" tayyorlanadi. Milliy musiqa ijrochiligida g'ijjak o'ziga xos ijrochilik maktabiga ega bo'lib, buyuk ustozlardan- Imomjon Ikromov, Salohiddin To'xtasinov, G'ulomjon Hojiqulov, Ilhom To'rayev, G'anijon Toshmatov, Doni Zokirov, Mahmudjon Muhammedov, Obit Xolmuxammedov, Botir Rasulovlar hamda ularning davomchilari- Abduhoshim Ismoilov, O'lmasjon Rasulov, Ziyovuddin Andijoniy, Ahmadjon Dadaev, Salohiddin Azizboyev, Qahramon Komilov, Shuhrat Yo'ldoshevlar, Qashqadaryodan Bo'ronxon Muqimov, A'zam Rajabov, Baxriddin Ostons, Salohiddin A'zamov, Nishonboy Avazov, Ravshan Muhammadiyev, Dilshod Mingishev, Jamol Xolmurodov, Jumanazar Ibrogimov va boshqalarning ustozona ijrolari tahsinga loyiqdir.

O'zbekiston Davlat konservatoriyasida g'ijjak sinfi bo'yicha professor Murod Toshmuhammedov ustozlik qiladi. Bu ustoz tomonidan g'ijjak musiqa cholg'usini an'anviy va zamonaviy ijrolariga xos ko'pgina darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlanib, nashr ettirilgan va o'quv jarayonida keng miqyosda qo'llaniladi.

Afg'on rubobi. Afg'on rubobi O'zbek milliy musiqa ijrochiligida asosan Buxoroda qo'llaniladi. Abdurauf Fitrat "Rubob" deb bu cholg'u to'g'irisida ma'lumot bergan. Lekin bu ma'lumot Qoshg'ar rabobi haqidami yoki Afg'on rubobi haqida ekanligi faqat berilgan ma'lumotnomadek izoh orqali tushunish mumkin. Chunki rabob sozining torlarini miqdori, tuzilishi albatta Afg'on rubobi haqidagi ma'lumotlar. Bu turdagi rubob Hindistonda, Pokistonda hamda Badaxshon viloyatida turlicha nomlanishlarda uchraydi. Ma'lumki Afg'on rubobi Badaxshon viloyatining ba'zi mahalgohlari Afg'oniston hududida, ba'zilari Tojikiston hududida

mavjud. Shu bois bu rubob sozi Badaxshonda "Badaxshon rubobi", Afg'onistonda "Afg'on rubobi" deb ataladi.

Badaxshon rubobini kosaxona va dasta tuzilishi bir bo'lak yog'ochdan tayyorlanadi. Torlar o'rnashgan joy "Sarpanja" nomli bo'lagi alohida tayyorlanib biriktiriladi. Unda asosan beshta ichakdan tayyorlangan torlari bo'lib, ular turli xil yo'g'onlikda. Undan tashqari oq po'latdan tayyorlangan o'nikkita simli torlari ya'ni qo'shimcha sado beruvchi torlari dastasining orqa yon qismida o'rnatilgan.

Bu musiqa cholg'usining ijrosi ham o'zbek milliy cholg'ulari qatori barcha musiqa dargohlaridagi rubob sinflarida o'rgatiladi. Dastlabki ijrolari Ergash Shuknrullayev, hozirgi kunda Buxorodagi Muxtor Ashrafiy nomidagi musiqa bilim yurtida va Oliyaxon Sultonova rahbarligidagi "Sitorai Mohixosa" nomli fol'klor an'sambilining sozandasi To'ra Jo'rayev Afg'on rubobini ijrochisidir. Toshkent Davlat Konservatoriyasida esa Afg'on rubobi sinfi bo'yicha dotsent G'ulomqodir Ergashev ustozlik qiladi. Sozlanishi aynan Qoshg'ar rubobiga o'xshash.

Qashqar rubobi. Rubob musiqa cholg'usi ko'pgina Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qo'llaniladi. Rubob musiqa cholg'usining turli xil nusxalari Arab mamlakatlarida, Xitoyning Qoshg'ar mahalgohida, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston hamda O'rta Osiyoning ko'pgina mahalgohlarida, Tog'li Badaxshon Avtanom viloyatida musiqa ijrochiligida qo'llanilmoqda. Rubob musiqa cholg'usining yaratilishi borasida turli xil ma'lumotlar mavjud. Go'yo rubob Muhammad Xorazmshoh davrida yaratilganligi haqida muallifi noma'lum musiqiy risolada ma'lumot berilgan. Lekin bu ma'lumot to'g'risida Abdurauf Fitrat o'z kitobida quyidagi fikrni bildiradi: Bu yigirmanchi yillarda Hindistondan keltirilgan "Sorang" ismli bir cholg'uning rubobga juda o'xshashligi meni shoshirgon edi. So'ngra qo'limg'a tushgan Darvesh Aliyning "Risolaiy musiqiy" asarida bu cholg'uning Balxda yasalg'oni, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani ko'rsatiladur"¹¹. Lekin bu berilgan ma'lumot hozirgi kunda O'zbekiston hududida mavjud Qashqar rubobi haqida emas bal'ki Afg'on yoki Badaxshon rubobiga o'xshash rubob to'g'irisidagi ma'lumotdir.

¹¹Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent 1993. 79 s.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Qashqar rubobi va Afg'on rubobi, Tojikistonda esa Qoshg'ar rubobi, Badaxshon rubobi, Pomir rubobi, Qumri (katta rubob) kabi rubob cholg'ulari mavjud.

O'zbekistonda Qashqar rubobi 1937-yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Bu borada rubob musiqa cholg'usining eng yetuk mutrib sozandasi O'zbekiston Xalq Artisti ustoz Muhammadjon Mirzayev bilan suhbat shuni ko'rsatadiki, Toshkentda dastlab bir uyg'ur sozandasi bu cholg'uni ijro etib yurgan. Muhammadjon Mirzayev bu rubobni ko'rib undan nusxa olish maqsadida O'zbekistonda Xizmat Ko'rsatgan San'at Arbobi xalq ustasi Usto Usmon Zufarov ustaxonasiga boradi. Aynan shu 1937- yilda O'zbekistonning Moskva shahrida bo'ladigan birinchi dekadasiga tayyorgarlik ko'rilib, turli xil musiqa cholg'ulari ham tayyorlanayotgan edi. Shu yili Usto Usmon Muhammadjon Mirzayevga o'zi olib kelgan Uyg'ur rubobidan aynan nusxa olib bir necha rubob tayyorlaydi va birinchi tayyorlangan Qashq'ar rubobi Muhammadjon Mirzayevga taqdim etiladi. Ma'lumki bu turdagi rubob aynan tanbur singari bo'lib, bunda pardalar bog'langan, sozlanishi ham aynan tanbur singari bo'lgan. Faqat bu yangi tayyorlangan rubobda bog'langan pardalar o'rniga, po'latdan yasalgan pardalar o'rnatiladi. Sozlanishi awalgidek kvinta ya'ni lya, re, lya ovozlari. Bu turdagi sozlanish rubobning an'anaviy sozlanishi, keyingi yillarda qayta tayyorlangan rubobning sozlanishi lya, mi, lya kvarta ovozlari, lekin to hozirgi kungacha Muhammadjon Mirzayev va ustozning farzandlari Shavkat Mirzayev an'anaviy soz uchun musiqiy asarlarni bastalab, cho'lg'u va ashula yo'li uslubida hamda rubob jo'rligida ijro etib kelishmoqda. Shuningdek Abbos Bahromov, Bo'riboy Mirzaahmedov, Ergash Shukurillayevlar ham ushbu sozda chalish sirlarini o'rgandilar.

Ma'lumki Qashqar rubobini dastlabki ijrosi, bu cholg'uni o'zbek milliy musiqa ijrochiligida ommalashib ketishiga, keyingi yillarda Qashqar rubobining o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratgan buyuk Ustoz Muhammadjon Mirzayevning xizmatlari buyukdir. Qashqar rubobida o'nlab musiqiy asarlar bastalanib, "bam" va "zir" (zil) ijrosiga xos ikki rubobda Muhammadjon Mirzayev va Ustoz Shavkat Mirzayevlar ijro etgan musiqiy asarlar behisobdir. "Bahor val'si", "Zavqim kelur",

"Dil kuyi", "Gulbahor va Tanovar" va boshqalar shular jumlasidandir. Uzoq yillar Qashqar rubobida maxsus bastalangan, xalq kuylari, maqom asarlaridan namunalar ijro etib kelindi. Keyingi yillarda Ustoz sozanda O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan Artist Shavkat Mirzayev rubobda o'ziga xos maqom ijrochiligi maktabini yaratib, rubob musiqa cholg'usi jo'rligida O'zbekiston xalq artisti Munojot Yo'lchiyeva bilan O'zbekiston, O'rta Osiyo va ko'pgina Xorijiy mamlakatlardagi yirik musiqiy anjumanlarda qatnashdilar.

Hozirgi kunda rubob musiqa cholg'usini mohir ijrochilari Shavkat Mirzayev, Qobil Usmonov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabov, Adham Xudoyqulov, Rifatilla Qosimov, Davron Ziyodov va boshqalar Ustoz Muhammadjon Mirzayev ijrochilik maktabining davomchilari hisoblanadi.

Doyra cholg'usi. Doyra musiqa cholg'usi musiqa ijrochiligida asosan mezon hisoblanib, yakka ijro, ikki.uch, to'rt, besh va ko'proq cholg'ular jo'rligidagi jamoa ijrolari jarayonida. hamda xonanda va sozandalar jo'rligidagi ijrolar, bir me'yorda muayyan o'lchovlardagi doyra zarbalari asosida ijro etib turiladi. Shu asnoda ijro jarayonini sekin, o'rtacha, tez va jozibadorligi sezilib turadi.

Doyra musiqa cholg'usi butun Sharq xalqlarida turli xil nomlar bilan atalib ijrochilikda qo'llaniladi. Masalan: doyra, daf, chirmanda, childirma. Turkiyada esa "dumbalak" nomi bilan ataladi.

Hozirgi kunda O'rta Osiyoda turli xil ko'rinishdagi doyralar uchraydi. O'zbekistonda esa doyra musiqa cholg'usi xalq ashulalari, yallalar, terma, lapar, maqom asarlarini cholg'i va ashula yo'li ijrolarida keng miqyosda qo'llaniladi.

Doyrada ijro etiladigan ijro zarblari esa turli davrlarda har xil nomlanib, aruz vaznlari asosida tartibga keltirilib "T" va "N" harflaridan foydalanilgan. Masalan: Ta-na. tan-nan, tana-nana va hokazo¹². Ma'lumki Buxoro shahrida musiqa ilmini amaliy va nazariy masalalariga katta e'tibor berib kelingan. 1920- yillargacha Buxoroda mavjud musiqa ijrochiligi haqida yozib qoldirilgan ko'pgina musiqiy risolalarga tayangan holda Abdurauf Fitrat doyra zarblari haqida shunday ma'lumot

¹²Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963. 68 s.

beradi. U doyra zarblarini "usul" deb ataydi. Bunda "nag'ma" va "niqra" to'g'risida so'z yuritiladi. "Musiqiy olimlarimiz musiqada usul belgilash uchun shunday harakat qiladilar: "kuy" da bir-biriga boylanib kelgan "niqra" laming "tan" shaklida bo'lganini "sabab-i hafif. "tana" shaklida bo'lganini "sabab-i saqil", "tanani" shaklida bo'lganini "fosila" deb ataydilar. Mana shul (tan, tana, tanan) shakllarida boylangan niqralarni belgili bir tartibda yig'ib, musiqiy usullarni maydonga chiqaradilar.

«Tanan-tan-tanan-tan» (fa'ulun, fa'ulun) vazniga «Hazaj» deydi. «Tan-tanan-tan-tanan» (foi'lun, foi'lun) vazniga «Ramal» deydi. Mana shunday qilib «usul» doyralarini tuzadirlar. Usul doyralari ba'zilariga ko'ra o'n besh, ba'zilariga ko'ra o'n yetti, ba'zilariga ko'ra yigirma to'rt, yigirma yettidir. Usul doyralaridan mashhur o'n ikkitasining otlari mana shulardir: Hazaj, ramal, vofir, duyak, foxtazarb, Turkiy, muxammas, saqiyl, chanbar. zarb-i qadim. zarbu-1-fath.¹³. Fitrat bu kitobda o'z fikrini davom ettirib. hozirgi kunda o'zbek musiqa ijrochiligida doyra zarblaridan «Tanan-tananan» o'rniga esa «bak-baka-baka-bum» nomlanishdagi ijrolari qo'llanilayotganligini ta'kidlaydi. Shunday qilib hozirgi kunda o'zbek musiqasida «bum-bak» (Xivada «gub-taq») nomli doyra zarblari bo'lib, ushbu kitobchani 12 sahifasidan to 24 sahifalarigacha Buxoroda mavjud moqom asarlarini ijrolarida qo'llanilgan juda ko'p sonli doyra zarblari haqida ma'lumot bergan. Hozirgi kunda O'zbekiston musiqa ijrochiligida doyra musiqa cholg'usini xotin-qizlar xalq ashulalari, lapar, yalla ijrolarida keng foydalanadilar.

Cholg'ularning takomillashuv jaroyoni o'z navbatida ularda ijro texnologiyasi va ijro uslublarini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Keyingi bobda shular haqida fikr va mulohazalar yurutamiz

¹³(Fitrat, O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993. 6,7,12,13 sahifelar) Qayta nashri.

II BOB CHANG CHOLG'USIDA IJROCHILIK TEXNOLOGIYASI

2.1.CHANGDA IJROCHILIK USLUBLARI

Chang ijrochiligining rivojlanishi, takomillashtirilishi unda badiiy asarni ijro etish texnikasini egallash darajasi - o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning nazariy bilimlarini, mahoratlarini oshirishnigina emas, balki ijrochilik uslubiy muammolarga ham katta e'tibor berishni talab etadi. Asosiy masala changda ijrochilik san'ati uslublarini asta-sekin va mustahkam egallashga qaratiladi. Chang ko'pgina boshqa xalq cholg'ulari singari professional cholg'uga aylandi, yangi ijrochilik uslublari uning ifodalilik imkoniyatlarini ancha boyitdi, ijrochilik mahoratini oshirdi, repertuarini kengaytirdi.

Changda yaxshi tovush chiqishi - cholg'uning sifatiga bog'liqdir, shuningdek, uni sozlashda cholg'u simlarining bir xilligiga va quloqlarining tengligiga e'tiborni qaratish lozim. Changda yaxshi musiqa ijro etishning muhim shartlaridan yana biri, bu cholg'u oldida o'tirish holatidir. Changning balandligi o'tirgan ijrochining qo'l tirsagidan oshmasligi kerak. Stulning balandligi va chang bilan oradagi masofa ijrochining bo'yi va qo'llari uzunligiga mos bo'lishi kerak. Zamonaviy changlar hozirda yaxshi o'rnatilgan so'ndiruvchilar, qobiq ichidagi pedal mexanizmi va oldingi oyoq pastki qismiga o'rnatilgan bosqichdan tuzilgan.

Pedaldan foydalanish texnikasi tovush chiqarishni yaxshilash, tozalash, kuyni yaxshiroq ijro etish, arpedjio va ikkitalik notalarni ijro etish imkoniyatini beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tovush jarangining tembri, cho'plarning torlarga urilgan zarblariga bog'liq. To'liq va quyuq tovush chiqarish uchun cho'plar bilan xarraklar ustiga o'rnatilgan chang simlari orasidagi masofa kamida 3-4 sm tepalikdan urilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Urma zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir. Cho'plar bilan torlarga urilganda chuqur, to'la tovush chiqishi kerak. Zarb qanchalik erkin bo'lsa, torning jarangi shunchalik yorqin bo'ladi.

Torlarni o'ng yoki chap qo'l bilan chertish quyidagicha belgilanadi:

II – o‘ng qo‘l zarbi;

V – chap qo‘l zarbi;

IIIV – ikkala qo‘lda baravariga zarb;

Tremolo - tremolo - (pez) - ikkita cho‘p yordamida uzluksiz, tez zarblarning ketma-ketligidir.

Changda uzluksiz tovushni faqat ikkita qo‘lning erkin harakatida tremolo uslubi yordamida chiqarish mumkin, yuqori, sifatli tovush hosil qilish uchun esa ijrochi bir tekis va erkin zarbga erishishi kerak.

Changda tremolo uslubini ikkitalik notalarda ijro etish imkoniyati ham bor.

Legato - (bog‘lama) - tordan torga sezilmas uzluksiz tremolo yordamida ehtiyotlik bilan o‘tish uslubidir.

Legatoda bir nafasda bir necha notani ijro etish mumkin. Bilaklar harakati nihoyatda erkin bo‘lishi kerak. Legato bir tekis uzluksiz tovush jarangini ta’minlab berish bilan birga, ijro etilayotgan asarga o‘ziga xos bo‘yoq beradi.

Cho‘p chertmak - pizz col legno - cho‘pning tekis bo‘lgan orqa yassi qismi bilan torlarni tirnab chertish yordamida tovush hosil qilinadi. Bu uslubga o‘tilganda cho‘plarni yuqoriga o‘girib, bosh va ko‘rsatkich barmoqlar yordamida siqiladi.

Chertish xuddi zarbga o‘xshab ijro etiladi.

Barmoq chertmoq - pizzicato - uslubida torlarga barmoqlar bilan mayin chertiladi. Bu uslub amaliyotga chang ijrochiligining takomillashuvi natijasida kiritildi. Changda pitssikato quyidagicha ijro etiladi: ikkita qo‘l barmoqlari bilan ikki va undan ko‘p tovushlarni chertish; qo‘llarning birida bittadan to uchtagacha tovushlarni chertish; bir vaqtning o‘zida bitta qo‘lda chertib, ikkinchi qo‘ldagi cho‘pda esa zarb berish yoki chertish ham mumkin.

Barmoq chertmoq uslubi chang ijrochiligini ifodaviy va texnik jihatdan boyitdi.

Pitssikato- uslubida bermalol uch, to‘rt, olti tovushdan iborat akkordlarni ijro etish mumkin. Pitssikato ijrosi rr dan to p gacha bo‘lgan jarang dinamikasini chegaralaydi. To‘rt tovushli akkordda katta va o‘rta barmoqlar qatnashadi. Olti

tovushli akkordda katta, o'rta va kichkina barmoqlar ishlatiladi. Ochiq pedalda tovushlar uzoq vaqtgacha tinmaydi.

Garmoniyani o'zgartirganda pedal mexanizmidan foydalanish kerak. Pitssikato uslubini chang diapazonining ixtiyoriy bo'lagida ijro etish mumkin, lekin uni changning o'rta registr qismida qo'llash qulayroqdir.

Urma-zarb - staccato con sordino - uslubida bir qo'l bilan torga berilgan zarbni bir zumda ikkinchi qo'l barmog'i bilan tovush ohangi so'ndiriladi. Bu uslub yordamida tovush jarangining odatdagi uzunligi kamaytiriladi, tovush yumshatilib, kuchsizlantiriladi.

Urma-zarbni, odatda, birinchi pastgi guruhda, ya'ni **kichik oktava soldan, birinchi oktava solgacha** bo'lgan diapazonda qo'llash tavsiya etiladi.

O'rta va yuqori registrlarda tovush qo'polroq chiqadi, ammo ijrochilik amaliyotida undan ham ba'zida foydalaniladi. **Cho'p tarak** - col legno - uslubida cho'pning ikkinchi yassi, yalang qismi bilan torlarga zarb beriladi. Bu esa shovqin effektini beradi. Bu uslubni ijro etayotganda bilaklar va cho'plar zarbdan keyin bir zumda torlardan qochishi kerak. Shundagina jarangli uzluksiz tovush hosil bo'ladi. Bu uslub birinchi marta S.Boboyevning xalq cholg'ulari orkestri bilan ijro etgan «Konsertino» asarida qo'llanilgan. Cho'p tarak changning o'rta registrda juda yaxshi jaranglaydi. Ikkilangan notalar, tremolo, legato, turli arpedjiolarni ham ijro etish mumkin. Tovushlarni ijro etishda imkon qadar **p** yoki **mp** da ijro etish maqsadga muvofiqdir.

Tebratma- vibrato - (вибрация) uslubida qo'l barmoqlari bilan torga zarb berilgandan so'ng ikkinchi qo'l barmog'i bilan asta-sekin tebratiladi. Bu uslubning odatda, cho'p tarak uslubi bilan birgalikda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Cho'p-chizma - glissando col legno - (глиссандо) uslubida bir tordan boshqasiga cho'pning yassi tomoni bilan kerakli tovushgacha sirg'anib o'tiladi. Bunda notalar uzunliklariga qarab, tez yoki sekin templarda xromatik yo'llar hosil bo'ladi. Glissandoni bir vaqtning o'zida ikkita qo'lda cholg'uning butun diapazonida ijro etish ham mumkin. O'ng qo'l boshlaydi, chap qo'l davom ettiradi va aksincha.

Sakratma-zarb – staccato - (stakkato) uslubida o'ng va chap qo'llarda cho'plar torlarga yengil va tez zarb berilishi natijasida tovush hosil qilinadi. Zarbdan so'ng aniq bo'lingan aksentli tovush hosil bo'ladi. U bitta tordan yoki bir tordan boshqasiga o'tilayotganda ham ijro etilishi mumkin.

Terma zarb - arpejio - (арпеджио) uslubini changning butun ijro diapazonida qo'llash mumkin. Ayniqsa garmonik akkordlar changda yaxshi jaranglaydi. Changdagi arpedjio ijrosi rus xalq cholg'usi - jarangdor guslini eslatadi.

Bu ijro uslublarni amaliyotda qo'llash va o'rganish ijrochi- changchilarning kasbiy mahoratini o'stirishiga yordam beradi. Umuman olganda, har bir cholg'uda ijrochilik san'ati sirlarini o'rganishda boshlang'ich davrning o'zidayoq - o'tirish holatlariga, ijro ko'nikmalariga va cholg'uning o'ziga xos uslublarini egallashga muhim ahamiyat bergan yosh sozanda-ijrochining kelajagi porloqdir. Shuningdek, ijrochi musiqiy asarni o'zlashtirishda, uning badiiy jiqatlarini ro'yobga oshirishda albatta, musiqani eshitishga, asarning intonatsiyasiga, dinamikasiga alohida e'tibor berishi lozim. Shuning uchun ham musiqa asarini yuqori san'at darajasiga olib chiqishdagi bir necha xususiyatlar haqidagi fikrlarni yoritish maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy eshitishning ahamiyati. Ma'lumki, musiqiy eshitishning faolligini nozik musiqiy eshituv hissiyotlarisiz, taassurotlarisiz na musiqani ijro etish mumkin, na uni to'g'ri qabul qilish mumkin. Rivojlangan musiqiy eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan insongina musiqiy tovushlarni qabul qilishi, eslab qolishi, ko'z oldiga keltirishi va ijro etishi mumkin. Bu fazilatlar qanchalik yorqin namoyon bo'lsa, musiqiy eshitish qobiliyati shunchalik o'tkir bo'ladi. Musiqiy eshitish qobiliyati nisbiy va absolyutga bo'linadi.

Nisbiy eshitish qobiliyati yordamida berilgan tovushlar balandligini aniqlash uchun tovushlarni etalondagisi bilan taqqoslash kerak.

Absolyut eshitish qobiliyati yordamida bunday taqqoslashlarsiz tovush balandligini aniqlash mumkin.

Absolyut eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan sozanda musiqani tinglashdan oldin har bir tovush balandligini aniqlay oladi. Ammo sozandada bunday qobiliyat yo'qligi, uning yaxshi ijrochi bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, nisbiy eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan sozandalar ham juda katta ijrochilik mahoratiga erishishlari mumkin. Buning uchun ijrochining musiqiy eshitish qobiliyati nozik va egiluvchan bo'lib, doimiy rivojlanish va takomillashuv jarayonida bo'lishi kerak.

Musiqiy eshitishning fiziologik asoslarini o'rganish insonning eshitish apparatiga bog'liq. Tibbiyot sohasi mutaxassislarining fikriga ko'ra, inson qulog'i murakkab organ bo'lib, u tovush to'lqinlarini nerv impulslariga aylantirib, bosh miyaga uzatadi. U uch bo'limga bo'linar ekan:

- a) tashqi quloq va uning o'zi: quloq chig'anog'i va tashqi eshitish yo'lidan;
- b) o'rta quloq va uning o'zi: baraban bo'shlig'i, eshitish suyaklari tizimi va eshitish trubkasidan iborat. Tashqi quloq o'rta quloqdan baraban pereponkasi bilan ajratilgan;
- v) ichki quloq labirint kabi bo'lib, uning asosiy qismlaridan biri
 - ulitka va kortiyev organidir. Ular eshitish hujayralari va ularga ulangan eshitish nervidan iborat.

Bu uch bo'lim o'z faoliyatiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi: tashqi va o'rta quloqlar tovushni uzatadi, ichki quloq esa tovushni qabul qiladi.

Ichki quloqda uzatilgan tovush to'lqinlari eshitish hujayrasining nerv to'qimalariga ta'sir qiladi. Bu ta'sirlar bosh miyaga uzatilib, ma'lum eshitish hissiyotlarini hosil qiladi. Chunki bosh miyada bu ishni bajaruvchi eshitish analizatori mavjud bo'lib, u bu ta'sirlarni analiz va sintez qiladi.

Chang ijrochisining shakllanishida o'qituvchining o'rnini. Hozirgi kunning musiqiy pedagogikasi - jahon musiqiy pedagogikailmi rivojining yangi davridir. Uning asosini yangi, bugungi kun o'quv-tizimining talabiga javob beradigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar tashkil qiladi. U esa, o'z navbatida, ilmiy-ijodiy uslubga asoslanadi, yangi tajribalarni umumlashtiradi, fan va madaniyat sohasining

erishgan yutuqlardan foydalanadi. Keng dunyoqarashga ega bo'lgan o'qimishli, har taraflama kamol topgan insonni tayyorlash - uning asosiy maqsadidir.

Musiqiy pedagogika - eng insoniy, oliyjanob, shu bilan birga, murakkab insoniy faoliyatdir. O'qituvchilik - bu ijodiy kasbdir. O'qituvchi bilan o'quvchilarasidagi muloqot, bu insonlar orasidagi muloqotning eng go'zal shaklidir. Bu haqda Neygauz: «Agar men o'z o'quvchilarimga u bu narsa bergan bo'lsam, ular o'z navbatida menga kam narsa bermadilar. Buning uchun men ulardan nihoyatda minnatdorman. Chunki san'atni bilish va o'rganishdagi umumiy intilishlarimiz do'stligimizga asos soldi, bir-birimizga yaqinlikka, hurmatga o'rgatdi va bu hissiyotlar dunyodagi his qilish mumkin bo'lgan narsalarning eng oliyjanobidir», - degan edi.

Musiqiy pedagogika bilan shu kasbga iqtidori bo'lgan insonlar shug'ullanishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilik kasbi insondan yuqori etik fazilatlarni talab qiladi. Bu jihatdan o'qituvchilik kasbini tibbiyotchilik kasbi bilan solishtirsa bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchiga nisbatan har doim to'g'ri so'z bo'lishi kerak. O'qituvchilik kasbi - uzluksiz ijodiy jarayondir. Bu kasbning murakkabligi yana shundaki, natija ancha keyin ko'rinadi. O'qituvchilik kasbi chuqur va keng ko'lamli bilimlarni bilishni talab qiladi. Shuning uchun hamisha yoshlarni tarbiyalash eng aqlli, bilimdon insonlarga topshirilgan. Yaxshi o'qituvchi, birinchi navbatda, o'z cholg'usida mukammal ijro eta bilishi kerak. Ammo shu bilan birga, shuni e'tirof etish kerakki, yaxshi cholg'uchi bu hali yaxshi o'qituvchi, degani emas va o'rta miyona cholg'uchi esa yomon o'qituvchi ekan, degani ham emas. Ushbu holat o'qituvchilik tajribasida ko'p uchragan tabiiy holdir.

Iste'dodli o'qituvchi tomonidan boshqarilayotgan sinf bu ijodiy laboratoriya, ijodiy ustaxonadir. O'quvchilarga bilim berish bilan birga, o'qituvchining o'zi ham o'rganadi, izlanadi. Buning natijasida u quruq ijrochilik bilan shug'ullanuvchi musiqachiga nisbatan keng ko'lamli bilimlarga ega bo'ladi. Ammo ayni bir paytda, ijrochilikning ahamiyatini ham kamaytirish yaramaydi. Ijrochilik bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi tinimsiz o'sadi, ijrochilikning badiiy va texnik

mahoratlarini kamolga yetkazish uchun yangi yo'llarni izlaydi. Bu esa uning o'qituvchilik faoliyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'qituvchi pedagogik, ya'ni didaktik fazilatlarga ega bo'lishi va o'z bilimlarini o'quvchilarga o'rgata bilishi kerak. U keng ko'lamdagi pedagogik bilimlarini va o'qitishning zamonaviy uslublarini egallashi kerak. O'qituvchi yaxshi musiqachi bo'lish bilan bir qatorda, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi, adabiyot, rassomchilik va san'atning boshqa turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. U to'g'rilik va hozirjavoblik, haqqoniylik va prinsipiiallik, kuchli iroda va tashkilotchilik fazilatlari bilan ham o'z o'quvchilariga namuna bo'lmog'i lozim.

Bu fazilatlar bilan bir qatorda, o'qituvchi o'quvchining individualligini ko'ra bilishi va uni rivojlantira olish qobiliyatiga alohida e'tibor berishi zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bitta sinfda har tomonlama bir xil ikkita o'quvchi bo'lmaydi. O'quvchilarning har biriga yakka tarzda yondoshib, ularning iste'dodini rivojlantirish kerak. Biri uchun ma'qul bo'lgan uslub, ikkinchisi uchun qiyinroq bo'lishi mumkin, chunki ularning anatomo-fiziologik hamda psixik xususiyatlari, musiqiy qobiliyatlari har xildir. Shundan kelib chiqib, ijrochilik apparatini shakllantirishga yagona uslubni ishlab chiqish mumkin emas.

O'quvchilarning psixik va nerv faoliyatlarining ishlashi turlichadir.

Katta tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar o'z o'quvchilarini nihoyatda yaxshi o'rganib, ularning har biriga mos yondashishga harakat qiladilar. O'quvchiga yakka tarzda yondashishning tashqi shakli bu o'quvchida ijodiy individuallikni tarbiyalashdir. Bir sinfda o'qiyotgan o'quvchilarning bir- birlaridan farq qilishlari bu aniq. Buni o'qituvchi avvaldan payqashi, to'g'ri rivojlantirishi va individuallikning namoyon bo'lishiga ko'maklashishi kerak.

Ma'lumki, musiqiy ijrochilik darslari yakka tarzda o'qitish tizimi bo'yicha olib boriladi. O'qituvchi har bir o'quvchi bilan dars davomida muloqotda bo'lib, uning rivojlanishini tizimli kuzatish, ta'lim natijalarini bilish, bu jarayonni boshqarish imkoniga egadir. Musiqiy ijrochilik darslarini o'tkazishning turli shakllari mavjud. Ular orasida eng ko'p tarqalgan shakllardan biri uch qismdan iborat bo'lgan umumlashgan shaklidir, ya'ni:

- a) o'quvchining mustaqil ishini tekshirish;
- b) mustaqil ish kamchiliklarini ko'rsatish, tuzatish va o'quvchiga yangi bilimlarni o'rgatish;
- v) navbatdagi topshiriqni aniqlashtirish.

Ba'zi bir o'qituvchilar darsning birinchi qismiga yetarlicha ahamiyat

bermaydilar. Bu noto'g'ri. Chunki bu qism uy vazifasi va sinf ishini bir-biri bilan bog'lab, bir butun jarayonni hosil qiladi. Tekshiruv o'quvchining mustaqil faoliyatini boshqarish, ijrochilik mahoratini faollashtirish imkonini beradi. Doimiy tekshiruv, faoliyatni baholash, o'quvchini tizimli ishlashga undaydi, uning xarakterida kasbiy fazilatlarining shakllanishiga yordam beradi. Tekshiruv asosida tartiblashtiruvchi tekshiruv g'oyasi yotadi. Shu bilan birga, mohirlik bilan o'tkazilgan tekshiruv o'quvchining o'zlashtirgan bilimlarini, ijrochilik ko'nikmalarini mustahkamroq egallashga yordam beradi. Tekshiruv kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi. Tekshiruvni diqqat va tantanavorlik ruhida o'tkazish kerak. Ijroni bo'lib, o'quvchini to'xtatish yo'li bilan, unga xalaqit berish mumkin emas. O'qituvchi o'quvchini diqqat bilan tinglab, hamma narsani eslab qolishga harakat qilishi lozim. Bu o'quvchiga oxirigacha o'z fikrini mustaqil ifodalash va javobgarlik hissini ko'tarish imkonini beradi. Darsning ikkinchi qismi davomiyligi va ahamiyati bo'yicha markaziy qism hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchi ijrosini to'liq tahlil qiladi, kamchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi. O'quvchining e'tiborini avval eng muhim, bosh muammoga qaratishi kerak. Keyingi darslar davomida ikkinchi darajali kamchiliklar bartaraf etilishi kerak. Kamchiliklar bilan bir qatorda, o'quvchi erishgan yutuqlar ham ko'rsatilishi kerak, albatta. Bu qismda tahlil va mustaqil ishni baholash bilan birga, o'qituvchi o'quvchiga yangi bilimlarni o'rgatadi, yangi ijro ko'nikmalarini shakllantiradi, eskilarini takomillashtirib, mustahkamlaydi. Dars o'quvchiga ma'lum axborotlarni beribgina qolmay, balki uning oldiga ma'lum bir vazifalarni ham qo'yadi. O'quvchi olgan bilimlarini solishtirishi, tahlil qilishi, umumlashtirishi kerak. Buning natijasida o'quvchi o'z tushunchalarini hosil qilishga ega bo'lishi kerak. Ustalik bilan o'tkazilgan dars nihoyatda yaxshi yakunlanishi kerak.

Darsning uchinchi qismi oldingi mashqlarga yakun yasashga va yangi mashqlarni aniqlashga bag'ishlanadi. Bu mashqlar o'quvchining kuchiga mos bo'lishi va sekin- asta murakkablashishi tartibida bo'lishi kerak. Ayrim vaziyatda uy vazifasining ba'zi elementlarini biroz mashq qilish ham mumkin.

Ammo u uslub o'qituvchini bir qolipga solib qo'ymasligi, darslarining bir-biriga o'xshamasligi, ijodiy rivojlantirib turishi kerak. Ba'zi bir o'qituvchilar o'z darslarini texnik va badiiy darslarga ajratadilar. Birinchisi, materialni o'rganishga bag'ishlansa, ikkinchisi, jo'rnavoz yordamida badiiy asarlar ustida ishlashga bag'ishlanadi. Buning natijasida o'qituvchi va o'quvchi diqqatini intonatsiya, ritm, tovush madaniyati, shtrixlar kabi turli xil ijrochilik muammolari jalb qiladi.

Ko'pgina o'qituvchilar ta'limning «monodars» shaklidan ham foydalanadilar. Bunday darslar ma'lum bir vazifani hal qilishga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday darsga imtihon oldidan o'tkaziladigan nazorat darsini misol qilish mumkin.

Darsning mazmuni va shakli o'quvchining individualligiga, uning yoshiga, imtihonning yaqin-uzoqligiga qarab o'zgarishi mumkin.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bolalar musiqa maktablari, akademik litsey va musiqa kollejlari yoki konservatoriyada darsni o'tkazish uslublari bir-biridan keskin farq qiladi.

Darsni tashkil qilish va o'tkazish uslublari har bir o'qituvchi uchun individualdir. Bu jarayonda musiqiy pedagogikaning kamolotga cheksiz intilishi o'z aksini topadi.

Dars vaqti chegaralangandir. Uni tejamli va samarali o'tkazish uchun o'qituvchi oldindan tayyorgarlik ko'rishi, ya'ni oldindan o'quv dasturlarini, badiiy va musiqiy materiallarni, o'quv adabiyotlarni o'rganishi kerak. Yakka ish rejalarini tuzishi shart. Ular har yarim yilga tuzilib, o'quvchi shu yarim yil ichida bajarishi shart bo'lgan barcha ishlarni qamrab olishi lozim. Masalan:

1. O'quv dasturi talablariga javob berish.
2. O'quvchining individual tomonlarini hisobga olish.
3. Murakkablikning izchil o'sib borishini ta'minlash.

4. O'rganilayotgan musiqiy asarlarning badiiyligini, shaklini va xususiyatlarini hisobga olish.
5. Ijrochilik mahoratining hamma uslublarini qamrab olib, garmonik tarzda rivojlanishini ta'minlash.
6. O'quvchining xohish va qiziqishlarini hisobga olishi va shu kabi talablarga tayyorgarlik ko'rish.

Reja tuza turib, o'qituvchi o'quv jarayonining umumiy zanjirida o'quvchining tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirishi, uning maqsadi va boshqa darslar bilan o'zaro aloqasini aniqlashi shart. Darsning mazmunini, uni tashkil qilish shaklini va o'tkazish uslubini aniqlashi kerak. O'quvchiga beriladigan musiqiy asarni o'zi o'rganishi, tegishli bo'lgan hamma ma'lumotlar bilan tanishib chiqishi kerak. Shu vaqtning o'zida o'quvchiga beriladigan uy vazifalarini oldindan rejalashtirishi kerak.

O'qituvchining badiiy ish faoliyati izlanuvchanlikni talab qiladi. Iqtidorli o'qituvchi o'rgatibgina qolmay, balki dars jarayonida o'zi ham o'rganib boradi. Ana shu jarayonda o'qituvchining individual ish uslubi, uning mahorati shakllanadi.

Dars jarayoni o'qituvchi ta'limning turli uslublaridan foydalanadi: og'zaki tushuntirish, asarni ijro etish, kuylash, dirijyorlik qilish va hokazo.

Bu uslublar ichida dirijyorlik - ayniqsa samaralidir. Dirijyorlik o'zining emotsionalligi, o'quvchilarni qiziqitira olishi bilan o'qituvchilar e'tiborini o'ziga tortadi. Bu uslubning yutuqli tomoni shundaki, uning yordamida o'quvchiga ijro vaqtida uni bo'lmasdan, to'xtatmasdan ta'sir qilish mumkin. Ba'zi bir o'qituvchilar dirijyorlikni kuylash bilan birgalikda olib borishadi, bu uslub esa yanada foydalidir. Yana katta ta'sirga ega bo'lgan uslublardan biri, o'qituvchining ijrosidir. Ammo bu usul qo'llanilayotgan vaqtda o'quvchining o'qituvchi ijrosidan nusxa ko'chirishiga yo'l qo'yish kerak emas. Bu uslub o'quvchining ijroni tushunishiga, bilishiga ketadigan vaqtini qisqartiradi, xolos. Ammo eng keng tarqalgan, soddagina ta'sir kuchiga ega bo'lgan uslub – bu og'zaki, so'z bilan tushuntirishdir. Bu uslubni egallagan o'qituvchi o'quvchiga eng qiyin, murakkab g'oya va

tushunchalarni o'rgatishga erishadi. So'z yordamida o'qituvchi badiiy asarning mazmunini, musiqiy ijrochilik san'atining qonuniyatlarini, ijrochilik apparatining qo'yilishini, texnik ijro uslublarini, o'quvchining kamchiliklarini ochib berishi mumkin. So'z yordamida katta yutuqlarga erishish mumkin, albatta, uni bilib, me'yorida ishlatilsa, lekin shu bilan birga, bu tushuntirishlar yordamchi xarakterga ega bo'lishi kerak.

Shuningdek, ijrochining emotsionalligiga ham e'tibor berish kerak. Ta'lim jarayonida faqat texnik vositalarga emas, balki emotsional kayfiyatga ham e'tibor berilsa, katta yutuqlarga erishish mumkin. Chunki o'qituvchi o'z sinfida hosil qilgan emotsional muhit yordamida o'quvchini qiziqtirishi, o'z kasbini sevishtirishga o'rgatishi mumkin. O'qituvchi bor kuchini sinfda ijodiy muhitni hosil qilishga harakat qilishi kerak. Asarni o'zlashtirishning boshlang'ich davridayoq jo'rnavoz bilan ishlashi tizimli davom etishi kerak, chunki buning natijasida o'quvchi musiqiy ansambl qonuniyatlarini o'rganadi.




Katta ixlos, zavq beruvchi kuch - bu konsert sahnasidir. O'quvchilar faqatgina akademik konsertlarda emas, balki har xil turdagi konsertlar, tanlovlarda ishtirok etishlari lozim. O'z kasbiga qiziqish, muhabbat uyg'otish uchun o'qituvchi mashhur musiqachilar, ularning san'ati va hayoti haqida gapirib berishi lozim. Yakka darslar bilan bir qatorda, sinfiy darslar ham alohida ahamiyatga egadir. Bunday vaziyatda o'quvchi sinfdoshlarining ijrosini tinglashi, o'qituvchi maslahatlarini eslab qolishi, birgalikda ijro etilayotgan asar ustida ishlashi, fikrlashi, mulohaza yuritishi mumkin.

Darslarning har doim muntazam uslubiy ko'rsatmalar orqali olib borilishi, cholg'u asbobida ijro texnologiyasini shakllanishini ta'minlaydi. Bu haqda keyingi paragrafda so'z yuritiladi.


2.2 CHANG CHOLG'U ASBOBIDA IJROCHILIK TEXNOLOGIYASI

Chang O'zbekistanda keng tarqalgan xalq cholg'u asbobidir. Chalish usuli texnologiyasi jihatidan chang torli urma musiqa asboblari guruhiga kiradi. Uning tuzulishi bir xil diametrlilik ingichka (taxminan 0,35 *mm* keladigan) metall simlarning bo'sh tortilishiga asoslangani kabi, uning tovushqatori diatonik bo'lib temperatsiya qilinmagan edi.

Professor V. M. Belyayevning «O'zbek musiqa asboblari» degan kitobida changning asosiy tovushqatori quyidagicha ko'rsatilgan:



REKONSTRUKSIYA QILINMAGAN CHANGDA TOVUSHLARNING JOYLASHUVI



Ayrim xalq sozandalari chang tovushlariga qo'shimcha tovushlar kiritishdi.

1938 yili V. Romanchenko, A. Kevdayans, S. Didenko va A. Petrosyanslar to'liq xromatik tovushqatorli (birinchi oktavadagi DO dan uchinchi oktavadagi RE diyezgacha) chang yaratdilar. Ana shu chang asosida keyinchalik dastlabki xromatik changlar tayyorlanib, ulardan O'zbek Davlat filarmoniyasining xalq cholg'u asboblari orkestrida hamda Hamza nomli musiqa bilim yurtining chang sinflarida foydalanildi.

Changni takomillashtirish ishi faqat shu bilan to'xtab qolmadi. Toshkent Davlat konservatoriyasiga qarashli eksperimental laboratoriya 1943 yildan buyon O'zbek xalq cholg'u asboblari takomillashtirish ustida ishlamoqda. Changning diapazoni yanada kengaytirilib, uning tovushqatori kichik oktavadagi SOL dan uchinchi

oktavadagi SOL diyezgacha yetkazildi. Bundan tashqari, torlarinig tovushini so'ndiruvchi tepki (pedal) mexanizm ixtiro qilindi; turli diametrli torlarni qo'llash yo'li bilan changning tovush kuchi oshirildi.

Takomillashtirilgan changning asosiy tipi bo'yicha quyidagi changlar yaratilgan:

1. **Pikkolo chang** — diapazoni birinchi oktavadagi DO dan uchinchi oktavadagi LYA gacha.

2. **Tenor chang** — diapazoni katta oktavadagi SOL dan ikkinchi oktavadagi MI gacha va kichik oktavadagi DO dan birinchi oktavadagi SOL gacha.

3. **Bas chang** — diapazoni katta oktavadagi DO dan kichik oktavadagi SOL gacha.


Shunday qilib, yangi yaratilgan chang turlarining umumiy diapazoni deyarli besh oktavani (katta oktavadagi DO dan uchinchi oktavadagi LYA gacha) tashkil etadi. Bu esa changdan orkestrda keng imkoniyatli guruh sifatida, orkestrdan bo'lak holda esa — mustaqil ansambl sifatida foydalanish imkonini beradi.

Lekin bu aytilganlardan, changni takomillashtirish ishi oxiriga yetkazildi, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Hali changda ko'pgina kamchiliklar mavjud. Masalan, tepki mexanizmi hali mukammal emas, ayrim registrlar bir tekis tovush bermaydi. Chang quloqlari tiniq sozni uzoq ushlamaydi.

Shubha yo'qki, changni takomillashtirish ustida olib boriladigan bundan keyingi ishlar bu mavjud nuqsonlarni tuzatish imkonini beradi.

CHANGNING TUZILISHI Chang cholg'u asbobi quti, torlar, quloqchalar va tepki mexanizmi (tovush-sundirgich)dan iborat. Ustki qopqoqning ichki tomoniga ikkita yog'och taxtacha o'rnatilgan bo'lib, ular prujina vazifasini bajaradi va qopqoqni mustahkam ushlab turadi.

CHANGDA TOVUSHLARNING JOYLASHUVI








Torlarni tarang qilib tortish uchun chorcho'pning ung tomoniga metall quloqchalar, chap tomoniga esa torlarning ikkinchi uchini ilib qo'yish uchun ilmoqchalar (shtift) o'rnatilgan.

Changning torlari xarraklar yordami bilan uch guruhga bo'lingan.


Birinchi guruh un ikkita uch qatorlik tordan iborat bo'lib, o'ng harrak va chap pog'ona orqali o'tadi. Bu torlar xromatik tovushqatorning 12 tovushini (kichik oktavadagi SOLDan birinchi oktavadagi «FA diyez» gacha) beradi.

Ikkinchi guruh yettita uch qavatli tordan iborat bo'lib, chap xarrak va chap pog'ona orqali o'tadi. Chap xarrak ikki pog'ona orasidagi torni ikki qismiga (3 : 2 hisobida) bo'lib turadi. Ulardan biri ung pog'onadan xarrakkacha, ikkinchisi esa — xarrakdan chap pog'onagacha hisoblanadi. Chap qismdagi torlar ung qismdagi torlarga qaraganda sof kvinta baland tovush beradi. Torlarning ikkinchi guruhsi xromatik tovushqatorning un turt tovushini (birinchi oktavadagi SOLDan ikkinchi oktavadagi SOL *diyez* gacha) o'z ichiga oladi.

ПРИМА ЧАНГИНИНГ ТОРЛАРИ

Товушларнинг номлари	Диаметр		Товушларнинг номлари	Диаметр		Товушларнинг номлари	Диаметр	
	пўлат ўзак	мис симли ўрама		пўлат ўзак	мис симли ўрама		пўлат ўзак	мис симли ўрама
	0,65	0,45		0,75	—		0,45	—
	0,65	0,45		0,75	—		0,45	—
	0,60	0,45		0,75	—		0,40	—
	0,60	0,40		0,75	—		0,40	—
	0,55	0,35		0,65	—		0,40	—
	0,55	0,30		0,50	—		0,35	—
	0,55	0,30		0,50	—			
	0,80	—						
	0,80	—						
	0,80	—						
	0,75	—						
	0,75	—						

Фортепиано клавиатураси



Uchinchi guruh oltita uch qator tordan iborat bo'lib, ular yuqoridagi qo'shimcha va chapdagi asosiy xarraklar orqali chap pog'onaga o'tadi.

Changning diapazonini oshirish maqsadida unga yuqorigi qo'shimcha xarrak o'rnatilgan. Bu xarrak surib qo'yilgan pog'onaning o'zginasidir.

Torlarning uchinchi xromatik tovushqatorning o'n ikki tovushini ikkinchi oktavadagi LYA dan, uchinchi oktavadagi SOL diyezgacha o'z ichiga olgan.

Shunday qilib, changning umumiy tovushqatori 38 tovushdan iborat.


Changning torlari yuqori sifatli pulatdan silindr shaklida silliq qilib ishlangan bo'lishi lozim. Pastki registr uchun (birinchi oktavadagi DO diyez va undan past) mis sim bilan uralgan torlar qullaniladi.

Torlarning bir uchi metall quloqchalarga, ikkinchisi esa ilmoqchaga tortib qo'yiladi. Quloqchalarning uchi turt qirrali bo'lib, ularda torni o'tkazib boylash uchun teshikchalar bo'ladi.


Tovush so'ndirgichlar momiq yopishtirilgan uchta yog'och plankadan iborat bo'lib, ular torlarning ustki qismiga joylashadi. Chalingan paytda uzoq vaqtgacha chuzilib turadigan tovushlarni birdan to'xtatish uchun oyoq bilan tepkini tez-tez bosish lozim.

CHANGNI SOZLASH

Chang temperatsiya qilingan kvinta bilan sof oktava bo'yicha sozlanadi. Sozlashdan avval birinchi navbatda o'rta xarrakni o'rnatib olish zarur. Xarrak shunday o'rnatilgan bo'lishi kerakki, uning har ikki tomonidagi torlardan chiqqan tovush temperatsiya qilingan kvintaning interval nisbatiga teng bo'lishi lozim. O'rta xarrak o'rnatilgandan keyin birinchi oktavadagi LYA kamertonga moslab sozlanadi. Bu uch qator tor o'rta xarrak orqali o'tganligi sababli sozlangan vaqtda uning ikkinchi qismini bir kvinta baland qilib (ikkinchi oktavadagi MI ga) sozlanadi. Ikkinchi oktavadagi MIga qarab birinchi oktavadagi MI va shu oktavadagi SI sozlanadi. Shunday qilib, chang quyidagi tartibda sozlanadi.



Tovushlarning to'g'ri yoki noto'g'ri sozlanganligini tekshirib ko'rish uchun ikkinchi oktavadagi RE ga qarab shu oktavadagi temperatsiya qilingan kvintani— ikkinchi oktavadagi LYA ni sozlash va uni boshlang'ich tovush bilan, ya'ni birinchi oktavadagi LYA bilan solishtirib ko'rish kerak.



Agar birinchi oktavadagi RE va ikkinchi oktavadagi LYA tovushlari boshlang'ich tonga moslashmasa, demak chang noto'g'ri sozlangan bo'ladi.

Bunday hollarda temperatsiya qilingan kvintani aniqlashda xatoga yo'l qo'yilgan bo'ladi.


Agar birinchi oktavadagi RE va ikkinchi oktavadagi LYA tovushlari haddan tashqari baland, bo'lsa, bunday holda qolgan un bir tovushni (asosiy LYA dan tashqari) salgina pasaytirish kerak, lekin bunda ortiqcha balandlik barcha tonlarga baravar taqsimlanishi lozim. Agar yuqorida kursatilgan tovushlar haddan tashqari past bo'lsa, unda qolgan barcha tovushlarni bir oz ko'tarish kerak bo'ladi.

Changning o'rta registri to'g'ri sozlanganligiga ishonch hosil qilingandan keyin boshqa torlarni sozlashga o'tish mumkin.

Birinchi oktavadagi RE dan past bo'lgan tovushlar ilgari sozlangan «nomdosh tovushlarga qarab sof oktava bo'yicha sozlanadi.



Ikkinchi oktavadagi LYA va undan baland bo'lgan tovushlar quyidagi tartibda sozlanadi: ikkinchi oktavadagi LYA ni (birinchi oktavadagi LYA bo'yicha) sozlab, torning ikkinchi qismi to'g'ri ekanligini tekshirib ko'riladi, ya'ni ikkinchi oktavadagi SI bemol ni birinchi oktavadagi SI bemol bilan solishtiriladi.



Agar ikkinchi oktavadagi SI bemol keragidan ko'ra balandroq bo'lsa, unda yuqoridagi qo'shimcha xarrakni ung tomonga salgina surib qo'yish kerak. Agar bu tovush keragidan ko'ra pastroq bo'lsa, unda xarrakni chapga surish kerak bo'ladi. Qolgan tovushlar ham shu tartibda sozlanadi.



CHANGNI TEMPERATSIYA QILINGAN MUSIQA ASBOBI YORDAMIDA SOZLASH. Yuqorida aytib utilgan sozlash tartibi ma'lum darajada tajriba va mahorat talab qiladi. Shuning uchun ham o'rganishning dastlabki paytlarida temperatsiya qilingan musiqa asboblari yordamida sozlash tavsiya qilinadi. Bunday musiqa asboblari jumlasiga royal, bayan, fortepiano shuningdek qashqar rubobini kiritish mumkin. Temperatsiya qilingan musiqa asboblari yordamida sozlash tartibi quyidagicha bo'ladi: tekshiruvchi asbobda ma'lum tovush chalinadi va chang unga moslab sozlanadi.

Chang tovushqatorini sozlashda quyidagi tartib tavsiya qilinadi.



1. Changning o'rta registridagi tovushlarni sozlashda quyidagilarni nazarda tutish kerak:

a) torlar tortilganda ularning qismlari o'rtasidagi taqsimot bir xil bo'lishi kerak.

Xarrakning to'g'ri joylashishidan qat'i nazar, torning biron-bir qismi sozlanganda uning ikkinchi qismi keragidan ko'ra baland yoki past tovush berishi mumkin.

Masalan, birinchi oktavadagi LYA ni sozlaganimizda ikkinchi oktavadagi MI tovushi keragidan birmuncha past eshitilishi mumkin.

Torlarni baravar taqsimlash uchun, binobarin LYA va MI singari to'g'ri sozlangan sof tovushlarni olish uchun MI tovushi tug'ri sozlanguncha torni taranglashtirish va sungra LYA tovushiga moslashguncha bo'shatish zarur.


Ba'zi hollarda torning qismlari o'rtasidagi notekislikni bartaraf qilish uchun barmoq bilan torni bosish ham kifoya qiladi;

b) o'rta xarrak to'g'ri joylashgan bo'lishi lozim.


Agar o'rta xarrak to'g'ri joylashmagan bo'lsa, o'rta registrdagi tovushlarni sozlash mumkin emas. Shuning uchun changning o'rta registrini sozlamasdan avval xarrakni tug'ri o'rnatib olish zarur. Buning uchun tekshiruvchi asbob yordamida changning birinchi oktavasiidagi LYA torini sozlab olamiz, uning ikkinchi qismi ikkinchi oktavadagi MI tovushini berishi lozim. Bu tovushning to'g'riligini tekshiruvchi asbobga qarab bilamiz. Xarrakni u yoq-bu yoqqa surib, tovushlarni bir-biriga moslaymiz.

Bunda o'rta yoki chap xarrak ustidan utgan torlarning har ikkala qismi bir tekisda tortilmaganligini ham nazarda tutish kerak;

v) changning yuqori registrdagi tovushlarni sozlashda dastavval xarrakning chap tomonidagi tovushlar sozlanadi.



O'ng tomondagi ularga yaqin bo'lgan tovushlar esa kichik sekunda yuqori eshitilishi zarur. Buning to'g'riligi esa nazorat asbob yordamida tekshirib ko'riladi.



Bu tovushlarning baland-pastligi yuqorigi qo'shimcha xarrakni u yoq-bu yoqqa surish bilan uzgartiriladi.

Changdagi barcha tovushqatorlarni sozlashda ularning tovushini nazorat asbob yordamida to'la-to'kis ikki marta tekshirib chiqish yaxshi sozlanishning garovidir.

Chang maxsus kalit bilan sozlanadi.



Kalit quloqchaga kiydirilib, ehtiyotlik bilan ung yoki chap tomonga sekin-asta buraladi. Kalitni burashda uning dastasini kuch bilan yuqori ko'tarish yoki pastga bosish yaramaydi. Bunday harakat quloqchalarni qimirlaydigan qilib qo'yishi mumkin.

Chang tez-tez sozlanaversa, uning quloqchalari o'rnashgan teshiklar kengayib, changning sozi tez-tez buziladigan bo'lib qoladi.

Changni hamma vaqt g'ilofda tutish lozim. G'ilofning ichi yumshoq mato bilan o'ralgan bo'lishi kerak. Bunday qilish changni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish yoki olib yurishda turli shikastlardan saqlaydi, binobarin, uning sozi buzilmaydi.


Changni namgarchilikdan va temperatura keskin o'zgaradigan sharoitlardan ehtiyot qilish kerak.

CHANGDA TOVUSH CHIQARISH YO'LLARI

Chang asosan cho'pni torga urish usuli bilan chalinadi. Chang chalingan paytda cho'ziq (sekin-asta so'nib boruvchi) tovush hosil bo'ladi. Cho'p torga nisbatan perpendikulyar ravishda urilishi kerak. Chalinayotgan paytda qo'l erkin harakat qilishi, torlardan yuqoriga uncha baland ko'tarilmasligi lozim.

Chalishning asosiy usuli «u» (urib chalish) belgisi bilan kursatiladi. Bu belgi faqat *tremolo*, *pizzicato* (*pizz*), *col legno* va *pizz. col legno* belgilaridan qaytishda ishlatiladi.

Jaranglab turgan tor (ayniqsa changning pastki registridagi tor) birdaniga barmoq bilan so'ndirilganda o'ziga xos bug'iq stakkato tovushi hosil bo'lib, u quyidagicha belgilanadi:



Tez-tez ijro etiladigan tovushlar o'ng qo'ldagi cho'p bilan chalinadi. Jaranglab turgan torning tovushi chap qo'lning barmoqlari bilan tez to'xtatilishi lozim.

Tremolo usuli, ya'ni cho'plar bilan torni tez-tez almashib urish — chang chalishdagi eng murakkab usul hisoblanib, bunda uzluksiz tovush hosil bulayotgandek tuyuladi. Ana shunday tez chalinadigan paytlarda qo'l panjalari nihoyatda yengil harakat qilishi kerak. Tremolo quyidagicha belgilanadi:



Tremolo usulida bir tovush chalinganda, shu usulda ikki tovush chalingandagiga qaraganda kuchliroq va cho'ziqroq tovush chiqadi.

Chang chalishning bunday asosiy usulidan tashqari (cho'p bilan torga urib chalishdan tashqari) boshqa usullar ham borki, ular changning ta'sirchanlik kuchini yanada orttiradi. Chunonchi:

1. *Pizzicato col legno* (*pizz. col legno*) — pitssikato kol lenyo — cho'pning orqa yassi qismi bilan torlarni tirnab (chertib) chalish
2. *Pizzicato* (*pizz.*) — pitssikato—(barmoq chertmak) ko'l barmoqlari bilan torlarni mayin chertish.
3. *Col legno* (*col leg*) — kol lenyo (cho'p tarak) — cho'pning orqa yassi qismida torlarni taqillatib urib chalish.

A. *Staccato con sordini* (*Stac. con sord.*) — stakkato s surdinoy — (surdinali bug‘iq stakkato) — jaranglab turgan chang torlarni ikkinchi bo‘sh qo‘l barmoqlari bilan tez-tez sundirish.

5. *Vibrato* (*vib.*) — vibratsiya (tebratma) — jaranglab turgan torlarni yon qatorga tutashgan qismini bo‘sh qo‘l barmog‘i bilan asta bosib tebratish.

6. *Glissando col legno* (*gliss. s. I.*) — glissando kol lenyo — (cho‘p sirg‘antirish) — cho‘pning orqa yalang qismi bilan bir tordan ikkinchi torga pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga sirg‘antirib chizma chertish.

Pitssikato usuli bilan uch, turt (ba‘zan undan ham ortiq) tovushlik akkordlarni chalish mumkin. *Pizzicato col legno* usuli bilan esa faqatgina ikki tovush chalish mumkin.

Chalishning asosiy hamda tremolo usullari *rr* dan *to //* gacha, shuningdek,



Srva tf gacha bo‘lgan barcha dinamik va texnik imkoniyatlardan to‘la foydalanishga imkon beradi.

Pitssikato usulida chalinganda tovush dinamikasi *rr* bilan *r* — dan tashqariga chiqmaydi

Pitssikato usuli cho‘p bilan ijro etilganda (*pizz col legno*) utkir, jarangdor va anik tovush hosil bo‘ladi.

Tremolo, col legno; pizz. col legno va *pizzicato* usullari chang chalishda ta’sirchanlik va texnik imkoniyatlarini ancha boyitadi. Ilgarilari bu usullar xalq ijrochiligida qo‘llanilmas edi.

Bu usullardan bir vaqtning uzida baravariga foydalanish ham mumkin.

Misollar:



Changning butun diapazoni hajmida xromatik glissandoni ijro etsa ham bo'ladi. Glissando — *col legno* usulida agar o'tkir tovush zarur bo'lsa, cho'pning yog'och qismi bilan, agar mayin tovush zarur bo'lsa, bosh barmoq bilan chalinadi.

QO'SH NOTALARNI CHALISH


Changda turli intervaldagi qo'sh notalarni istalgan usulda chalish mumkin. Biroq qo'sh notalar chalinganda ijro etish tezligi ozgina sekinlashadi, chunki ijrochi bir qo'lning o'zida bir necha bor harakat qiladi.

LEGATO USLUBI

Musiqadagi ayrim birikmalarni uzluksiz chalishni, ya'ni bir tovushdan ikkinchi tovushga to'xtovsiz o'tish paytida *legato* degan so'z bilan yoki ma'lum notalarni o'z ichiga oluvchi yoysimon chiziq (liga) bilan ifoda etiladi. Legatoni ijro etishda cho'plar tordan-torga to'xtovsiz bir tekisda, siltanmay o'tishi kerak. Qo'l nihoyatda erkin harakat qilishi lozim. Torlarning oralig'i qanchalik yaqin bo'lsa, ularning biridan ikkinchisiga o'tish shunchalik yengillashadi. Binobarin, legato ma'lum darajada tor va xarraklarning joylanishiga bog'liq bo'ladi.

CHANG CHO'PLAR

Chang cho'plari pishgan bambukdan yasaladi. Ularning kattaligi taxminan quyidagicha:



Cho'plar egiluvchan bo'lishi kerak. Cho'pning bir uchi (bolg'acha qismiga) rezina yoki fils kiygiziladi; ikkinchi ushlash uchi (yog'och qismi) bir oz yassi bo'lib *pizz col legno* usulida chertib chalish vazifasini ham o'taydi. Tovushning tembr va kuchi ko'pincha cho'plarning vazni, egiluvchanligi hamda yumshoq rezina kiydirilgan bolg'achalariga bog'liq bo'ladi.

CHO'PLARNI USHLASH USULI

Cho'plar ung va chap qo'lda, bir-biriga parallel ravishda to'g'ri harakatlantiriladi. Cho'p ko'rsatkich barmoqning birinchi uch bug'ini bilan o'rta barmoqning ikkinchiga yaqin bo'g'imi orasiga joylashadi (uchinchi barmoq cho'pga qisman tegib turadi). Bosh barmoq cho'pning oxiridan taxminan 2-3 sm yuqorida bo'ladi.

TORLARNING CHALINADIGAN QISMI

Chang tovushining tembri va kuchi ko'pincha cho'p bilan torning qaysi qismiga urilishiga bog'liq. Amalda shu narsa tasdiqlangan: changdan to'liq va aniq tovush chiqarish uchun chang cho'plari xarrakdan taxminan 3—4 sm uzoqlikka urilishi lozim. Biroq bundan torning boshqa joylariga urmaslik kerak, degan xulosa chiqmaydi. Negaki, xarrakning yaqinroq va uzoqroq joylariga urish bilan kerak bo'lgan xarakterli kuchli va kuchsiz mayin tovushlarni chalish ham mumkin.

TOVUSHLARNI «SO'NDIRISH»

Cho'p bilan torga urilgach, changdan chiqqan tovush hadeganda so'na qolmaydi. Shuning uchun ham diatonik va xromatik gammalar ijro etilganda, shuningdek bir xil balandlikdagi (hamohang) notalar almashinib chalinganda tovushlar bir-biriga aralashib, chalkash eshitiladi.

Ortiqcha tovushlarni o'z vaqtida tez so'ndira bilish—chang chaluvchining ijrochilik mahoratidan biri sanaladi. Changning tovushini ikki xil yo'l bilan to'xtatish, ya'ni so'ndirish mumkin: maxsus tepki mexanizm yordamida va qo'l kafti bilan.

O'ng oyoq yordami bilan ishlaydigan mexanizm changdagi har qanday tovushni birdaniga so'ndira oladi.

IJROCHINING O'TIRISH HOLATI

Chang chalish mahoratini egallash cholg'u asbobining to'g'ri o'rnatilishi, changchining o'tirishi va qo'llarining to'g'ri harakatiga bog'liq.

Changni o'rnatish — chalishdan avval chang maxsus oyoqchalarga, o'tirgan ijrochining tirsaklari balandligida o'rnatiladi.

Ijrochining o'tirishi — ijrochi stulda o'tirishi, biroq uning suyanchig'iga suyanmasligi, shu bilan birga gavdani oldinga uncha egib yubormasligi kerak. Tepki mexanizmni ishlatish uchun uning ung oyog'i bir oz oldinroqqa chiqib turadi.

Qo'llarning holati — changni chalishda ijrochining qo'llari egilgan bo'lib, chang torlari uning tirsaklaridan pastda turishi kerak. Qo'llarning yig'ilgan kaftlari bir-biriga qaragan bo'lishi lozim.



APPLIKATURA

Har ikkala qo'lni o'z o'rnida ishlata bilish — chang chalishning asosiy xususiyatidir. Biroq bu prinsip ba'zi hollarda, quyidagi sabablarga ko'ra o'zgaradi:

- a) badiiy ta'sirchanlikda;
- b) chalishdagi qulaylikda;
- v) qo'sh notalarni ijro etishda (tremolodan tashqari);
- g) tovushlarni qo'l bilan so'ndirishda va hokazolarda.

Shunga ko'ra, qaysi qo'lda chalishlikni O'. va CH. harflari bilan belgilash lozim: , O'. — o'ng qo'l bilan.

CH. — chap qo'l bilan.

Xulosa

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, yoshlar orasida targ'ibot qilish, ular ongiga singdirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa deb hisoblanadi. O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Xalqning madaniy qadriatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelgan.

Malakaviy ishning birinchi bobida o'zbek xalq cholg'u asboblarning tarixi borasidagi ma'lumotlarni bilish ijrochilik mahoratini, ijrochilikning ana'naviy uslublarini kelajak avlodga o'rgatish, o'z taqdirini chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining jonkuyar davomchisi etib tarbiyalashimizda muhim omillardan biridir.

Chang milliy cholg'u asbobining yildan-yilga, asrlar osha rivojlanib takomillashib zamon talabi darajasiga javob bera olishi ijrochilik maxoratini o'stirish, milliy musiqa merosimizni keng xalq ommasiga targ'ib qilish, shu jumladan, dunyo musiqa madaniyatiga doir bilimga ega bo'lish, milliy cholg'u asboblari orqali milliy va zamonaviy musiqa merosimizni butun jahonga tanitish imkonini bermoqda.

Malakaviy ishning ikkinchi bobida chang cholg'u chang ijrochiligining rivojlanishi, takomillashtirilishi unda badiiy asarni ijro etish texnikasini egallash darajasi - o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning nazariy bilimlarini, mahoratlarini oshirishnigina emas, balki ijrochilik uslubiy muammolarga ham katta e'tibor berilgan.

Changda ijrochilik san'ati uslublarini asta-sekin va mustahkam egallashga changda yaxshi tovush chiqishi - cholg'uning sifatiga bog'liqdir, shuningdek, uni

sozlashda cholg'u simlarining bir xilligiga va quloqlarining tengligiga e'tiborni qaratish uchun texnologiyasi va uslublarini bilish talab etiladi.


Va nihoyat changda yaxshi musiqa ijro etishning muhim shartlaridan yana biri, bu cholg'uchining cholg'u asbobi oldida qulay o'tirish holatidir. Demak, xulosa qilib aytish kerakki, o'zbek xalq cholg'u asboblaridan biri bo'lgan chang cholg'u asbobida mukammal ijro uslublarini egallash va yaxshi ijrochi sozanda bo'lish – bu o'zbek milliy san'atiga bo'lgan hurmat va ehtiromdir. Bunda ustozlarning qilgan mehnatlari tahsinga loyiq. Biz yoshlarning bunday madaniy merosni avaylab, to'g'ri ijro usul va texnologiyalarni puxta o'zlashtirishimiz, kelgusi avlodga yetkazib berish burchimiz va vazifamiz deb bilaman.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T.1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.1997
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.: Sharq 1998 y-182 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. T.: O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y 1-3 betlar.
5. Alimov F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, «Musiq», 2004.
6. Dadamuxamedov A. Rubob prima darsligi. Toshkent, 2004.
7. Ergashev G'. Afg'on rubobi darsligi. Toshkent, 2004.
8. Nurmatov X. Qashqar rubobi. Toshkent, 2003.
9. Toirov M., Petrosyants A. Musiqa asboblari - «Nay». Toshkent, 2002.
10. Odilov A., Lutfullaev A. Musiqa asboblari – «Chang». Toshkent, 2002
11. Qosimov R. Musiqa asboblari – «Ud». Toshkent, 2002.
12. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002.
13. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent, 1997.
14. Toshmuxamedov M. G'ijjak darsligi. Toshkent, 1996.
15. Петросянц А. Инструментоведение «Узбекские народные инструменты». Т., «Изд. им. Г.Гуляма». 1990.
16. M.Asilov, F.Vasilev. Toshkent, Dutor darsligi. 1987.
17. Varelas S. Partitura o'qish kursi. T., "O'qituvchi". 1984.
18. Гиенко Б. Инструментовка (для оркестра узбекских народных инструментов). Ташкент, 1970.
19. Abdukarimov M. "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2005 y
20. Lutfullayev A . O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.: Musiqa, 2006 yil

ILOVALAR:

Har xil changlarning diapazon jadvali quyidagicha:




PIKKOLO CHANGI










Pikkolo changidagi torlarning soni va ularning joylanishi prima changnikiga o'xshash bo'ladi. Pikkolo changining diapazoni:



PIKKOLO CHANGDA TOVUSHLARNING JOYLASHUVI



ПИККОЛО ЧАНГНИНГ ТОРЛАРИ


Товушларнинг номлари Наименование звуков	Торлар диаметри Диаметр струны	Товушларнинг номлари Наименование звуков	Торлар диаметри Диаметр струны	Товушларнинг номлари Наименование звуков	Торлар диаметри Диаметр струны			
ПЕРВАЯ ГРУППА		ВТОРАЯ ГРУППА		ТРЕТЬЯ ГРУППА		0,80	0,55	0,35
						0,80	0,55	0,35
						0,80	0,50	0,35
						0,75	0,50	0,35
		ИККИНЧИ ГРУППА		УЧИНЧИ ГРУППА		0,75	0,45	
						0,70	0,45	
						0,70	0,40	
БИРИНЧИ ГРУППА						0,65		
						0,65		
						0,60		
						0,60		
						0,60		

TENOR CHANG

Qayta takomillashtirilgan tenor changning diapazoni quyidagicha:


Ёзилади:

по начертанию



Ижро этилади:


по действительному звучанию


















Yozilgandan ko'ra bir oktava past tovush beradi.

Tenor changda 40 ta tor bo'lib, ular juft-juft qilib unison bo'yicha sozlanadi va 20 ta tovush beradi.


TENOR CHANGDA TOVUSHLARNING JOYLASHUVI



ТЕНОР ЧАНГНИНГ ТОРЛАРИ

Товушларнинг номлари Наименование звуков	Диаметр		Товушларнинг номлари Наименование звуков	Диаметр	
	пўлат ўзак стальной основы	мис симли ўрама медной намотки (кани тели)		пўлат ўзак стальной основы	мис симли ўрама медной намотки (кани тели)
	1,00	1,00		1,00	1,00
	1,00	0,80		1,00	0,70
	0,80	0,70		0,80	0,60
	0,80	0,60		0,80	0,50
	0,80	0,50		0,70	0,40
	0,70	0,40		0,70	0,30
	0,70	0,30		0,60	0,30
	0,60	0,30		1,00	—
	1,00	—		0,80	—
	0,80	—		0,80	—


BAS CHANG Bas changning diapazoni quydagicha:











Bas chang uchun yoziladigan nota bas kalitida bo'lib, qanday yozilsa, shunday tovush beradi.


Bas changda 40 ta tor bor, ular juft-juft qilib unison bo'yicha sozlanadi.'

BAS CHANGDA TOVUSHLARNING JOYLASHUVI



Товушларнинг номлари	Торлар диаметри		Товушларнинг номлари	Торлар диаметри	
Наименование звуков	Диаметр струны		Наименование звуков	Диаметр струны	
	1,00	1,00		1,00	1,00
	1,00	0,80		0,80	0,75
	0,80	0,75		0,80	0,65
	0,80	0,65		0,80	0,65
	0,80	0,65		0,80	0,60
	0,70	0,60		0,70	0,55
	0,70	0,55		0,70	0,50
	0,70	0,50		0,70	0,45
	0,60	0,45		0,60	0,40
	0,60	0,40		0,60	0,40

CHANGDA TOVUSH CHIQARISH YO'LLARI



Pizzicato col legno (pizz. col legno) — pitssikato kol lenyo — cho'pning orqa yassi qismi bilan torlarni tirnab (chertib) chalish



Staccato con sordini (Stac. con sord.) — stakkato s surdinoy — (surdinami bo'g'i stakkato) — jaranglab turgan chang torlarni ikkinchi bo'sh qo'l barmoklari bilan tez-tez so'ndirish.

CHANGNING TO'LA XROMATIK TOVUSH QATORI



Билакларни майин ҳаракатга ўргатиш машқлари.

Барча тональностларда чалиш мумкин.

№ 1



№ 2

simile

The musical score consists of 12 staves, organized into six pairs. The first staff begins with a treble clef, a common time signature (C), and a key signature of one sharp (F#). The music is written in a rhythmic style with many eighth and sixteenth notes. The first staff has several accents (>) above the notes. The word "simile" is written below the first staff. The subsequent staves continue the melodic and harmonic development, with various slurs and dynamic markings. The notation is clear and professional, typical of a printed musical score.

ГАММАЛАР

C dur — До мажор



a moll — ля минор
П Л




G dur — Соль мажор
П Л



e moll — ми минор

П.Л.



D dur — ре мажор

П.Л.




f moll — си минор

П.Л.




A dur — ля мажор

П.Л.




fis moll — фа # минор


П.Л.




E dur — ми мажор



cis moll — до # минор




H dur — си мажор




gis moll — соль # минор




Fis dur — фа # мажор



Диапазон: катта октава *ля* дан, иккинчи октава *ре* гача:



Тенор — дуторининг асосий сози билан бирга халқ ижрочилиги амалиётида мавжуд бўлган халқ созандалари фойдаланидиган асарнинг ладига, хонанда овози диапазониға, мусиқий чолғунинг созлиғига боғлиқ бўлган яна иккита, яъни квинта ва унисон (овоз мослиғи, жўрлиғи) созига эға:



Чанг гуруҳлари

Чанг гуруҳига пикколо, прима, тенор, бас чолғулари кирали. Чанг ижрочиси стулда унинг орқасига суянмаган, гавдани ҳаддан ташқари эгилишиға йўл қўймаган ҳолда ўтириши лозим. Ўнг оёғи олдинға чиқарилиб тепки (педаль) механизимини ҳаракатлантиради.


Товуш чиқаришнинг асосий усули торларға таёқча билан зарб (3) уришдир. Таёқча бамбукдан тайёрланади, улар ўнг ва чап қўлда бир бириға тўғри ва параллел ҳолда ушланади. Торларға зарб уриш йўналиши перпендикуляр бўлиши керак. Тремоло анча мураккаб усулди.

Товуш чиқаришнинг қўшимча усуллари.


Италияча белгиланиши	Талаффузи	Маъноси
Pizzicato col legno	Пиццикато кольленьо	Чанг чўпининг ёғоч томони билан тирнаб ижро этиш.
Pizzicato	Пиццикато	Бармоқлар билан ижро этиш.
Col legno	Кольленьо	Чанг чўпининг ёғоч томони билан уриб ижро этиш.
Staccato con sordini	Стаккато кон сурдини	Чанг чўни билан берилган зарбни бошқа қўл бармоғи билан тўхтатиш.
Vibrato	Вибрато	Овоз чиқаётган тор ҳаррагининг бошқа томонидан бармоқ билан эзиб, титратиш.
Glissando col legno	Глиссандо кольленьо	Чанг чўпининг ёғоч томони билан бир тордан бошқасига сирпаниб ўтиши.

Чанг пиккало

Товушларнинг жойлашуви ¹;




Диапазони: биринчи октава *до* дан, учинчи октава *ля* гача:




Чанг прима

Товушларнинг жойлашуви:

РАСПОЛОЖЕНИЕ ЗВУКОВ НА ЧАСТЕ ПЕРЧА



Диапазони: кичик октава *соль* дан, учинчи октава *соль—диез* гача:



Ижро жараёнида созанданинг ўтириши




Чанг тенор


Тенор чанги транспорт қиладиган чолғу бўлиб, ёзилганидек 1 октава паст эшитилади:




Тенор чангларининг икки хили мавжуд.
Товушларнинг жойлашуви (1—вариант):




Диапазони: катта октава *соль* дан, иккинчи октава *ми* гача:



Товушларнинг жойлашуви (2 — вариант):




Диапазони: кичик октава *до* дан, биринчи октава *соль* гача:




Чанг бас

Товушларнинг жойлашуви.



Диапазони: катта октава *до* дан, кичик октава *соль* гача:



Камонли чолғулар гуруҳи

Камонли чолғулар гуруҳи таркиби гижжаклар оиласига мансуб бўлиб, биринчи, иккинчи, альти, бас, контрабаслардан ташкил топади.

Гижжакда товуш чиқаришнинг асосий усуллари камон билан амалга оширилади ва қуйидаги белгилар билан ифодаланади:

П — пастга, ёки ўзидан ўнг томонга.

У — юқорига, ёки ўзидан чап томонга.

Mundarija:

Kirish.....	3
I-Bob. O'zbek xalq cholg'u asboblarning tarixi.....	7
1.1. Xalq cholg'u asboblarning shakllanishi.....	7
I.2 Xalq cholg'u asboblarning takomillashuv jarayoni.....	25
 II Bob Chang cholg'usida ijrochilik texnologiyasi.....	38
2.1.Changda ijrochilik uslublari.....	38
2.2 Chang cholg'u asbobida ijrochilik texnologiyasi.....	49
 Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	69
Ilovalar.....	70